

**O‘zbekiston Respublikasi
Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi**

Tarbiya

fanidan uslubiy qo‘llanma



Toshkent 2025-yil

“Tarbiya” fanidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda o’qituvchilar (fan o’qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun ishlab chiqilgan uslubiy qo’llanma 2025-yilning 25-mart kuni Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi huzuridagi “Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi bo’yicha Ilmiy-metodik kengashning 1-sonli yig’ilishida muhokama etilib, kengash qaroriga binoan nashrga tavsiya etildi.

Mualliflar: Risyukova Yuliya Vasilyevna
Alimova Gulmira Kabuljanovna
Mo’minov Sulton Akbar o’g’li

Taqrizchilar:

F.Qodirova	Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri, professor.
U.Xudayberdiyev	O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi
G.Xasanova	Toshkent shahri, Bektemir tumani 290-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi inklyuziv ta’lim sinfi o’qituvchisi

Tahrirchi:

M.Kasimova	Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi
-------------------	---

Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun

“Tarbiya” fanidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda o’qituvchilar (fan o’qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun mo’ljallangan.

4-sinf

Kirish

Har bir mamlakat taraqqiyotining muhim sharti yosh yetishib kelayotgan avlodni har tomonlama mukammal bo'lishi, jamiyatning kelajagi esa uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta'lim samaradorligini oshirish masalasi bugungi kundagi muhim vazifalardan biriga aylanib kelmoqda.

Ayniqsa davlatning ijtimoiy siyosatida voyaga yetmagan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ayniqsa ularga ta'lim berish, alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, shuningdek, ularni jamiyatda o'z o'rinlarini egallashlariga ko'maklashish alohida ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosib sharoit yaratish, ular ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish borasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Yangi tahrirda qabul qilingan **“Ta'lim to'g'risida”**gi Qonunga ham inklyuziv ta'lim haqida modda kiritildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **50-moddasida “Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi”** jumlasining kiritilishi ham diqqatga sazovordir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim maktablarida bilim olishi, do'stona muhitni, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo'ravonlik hamda kamsitishlikka yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta'lim-tarbiya olishi ko'zda tutilgan.

Ushbu **“Tarbiya”** fanidan inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilar (fan o'qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan bo'lib yakka hamda guruhli sinf mashg'ulotlarida ishlash usullari yuzasidan yondashuv yoritib berilgan.

Qo'llanma amaldagi o'quv reja va dastur, darsliklar asosida yaratilgan bo'lib, sinfda bajaradigan vazifalari, savollarga beradigan javoblari, uy vazifasini bajarishi, yangi dars mavzusiga tayyorlanishi, shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlari, tibbiy tashxislari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga moslashtirilgan holda ishlangan.

Undan tashqari qo'llanmada umumta'lim maktabida tashkil qilingan inklyuziv ta'lim sinflaridagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagoglar oddiy bilim beruvchigina bo'lib qolmasdan ta'lim jarayonini, sifatini ta'minlovchi asosiy tashkilotchi hisoblanishi har tomonlama ochib berilgan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni Tarbiya fani yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma orqali go'zal insoniy fazilatlar, chuqur foydali bilimlar bilan uqtirishdir. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – o'quvchilarni yangi davrning mard va jasur, adolatli va sadoqatli, mehrli va oqibatli, hayoli va oriyatli, vatanparvar, ezgu maslagida qat'iyatli, mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish va ijtimoiy hayotga moslashtirishdir.

Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kritik (tanqidiy) fikrlash (critical thinking), kreativlik (creative thinking) muloqot qilish kommunikatsiya (communication), jamoaviy ishlash ko'nikmasi kooperatsiya yoki kollaboratsiya (coordinating with others) ko'nikmalari rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Eslatma! Inklyuziv ta'lim sinfi qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalari bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi maxsus pedagog, psixologi, tibbiyot xodimi hamda ota-ona bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Shu asosida ota-onalar uyda tegishli vazifalarni bajarish, o'rgangan bilimlarini nazorat qilib borishi ko'rsatib o'tilishi maqsadga muvofiq.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish



1-rasm. Sinflar va laboratoriyalardagi o'quvchilar o'tirish joylarini taqsimlashda o'quvchining salomatligi holati e'tiborga olinishi

1. Evakuatsiya rejasi – bu yerda binodan xavfsiz chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi evakuatsiya rejasi joylashgan. Bu jadval binodan favqulodda holatlarda tez va xavfsiz chiqishni ta'minlash uchun muhim.

2. Doska – odatiy sinfxonalarda mavjud bo'lgan yozuv va dars o'tish uchun mo'ljallangan doska.

3. Brayl yozuvli kompyuter – ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar uchun Brayl shriftli kompyuter va klaviaturalar.

4. Moslashtirilgan o'quv stollari – umumiy o'quvchilar uchun, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham qulay bo'lgan maxsus stollar.

5. Nogiron aravasidagi o'quvchi uchun stol – nogironlar aravasidagi o'quvchilarga moslashtirilgan maxsus stol. Stolning balandligi va kengligi o'quvchining harakatlanishiga mos keladi.

6. Xavfsizlik tizimi (qo'ng'iroq tugmasi) – bu yerda favqulodda holatlarda qo'ng'iroqni bosish mumkin bo'lgan xavfsizlik tugmasi mavjud.

7. Eshik va kirish uchun maxsus moslamalar – eshik hududida nogironlar uchun maxsus qulay kirish, pandus va eshik ostonasini ko'rsatadi.

9. "Chiqish" belgisi – evakuatsiya yoki favqulodda holatlarda chiqish yo'lini ko'rsatuvchi yozuv.

10. Evakuatsiyaning audio-va vizual belgilari – eshitish va ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun maxsus evakuatsiya belgisi.

11. Video kuzatuv kamerasi – sinfning xavfsizligini ta'minlash uchun o'rnatilgan kamera.

12. Tutqichlar – harakatlanishda qiyinchiliklar bo'lgan o'quvchilar uchun o'rnatilgan maxsus tutqichlar.

13. Evakuatsiya va xavfsizlik uchun audio-va vizual ma'lumot taqdimotchilari evakuatsiya jarayonini osonlashtirish uchun audio va vizual ko'rsatmalar.

14. Taktill yo'l – ko'zi ojiz bolalar uchun joylashtirilgan maxsus taktill yo'llar, bu ularning sinfda xavfsiz harakatlanishlariga yordam beradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (*eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar*)ni doskaga yaqin, o'qituvchi hamda tengdoshlarini ko'rib turishi uchun qulay bo'lgan oyna tomondan hamda har qanday qatordagi birinchi va ikkinchi partada o'tirishini tavsiya qilish (*og'zaki nutq 2,4 m, shivirlash esa 0,5 - 1 m masofadan qabul qilinadi*);

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (*ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar*)ni sinfga osongina kirib chiqishi uchun o'rta qatordagi birinchi va ikkinchi partaga hamda ko'rish qobiliyati past o'quvchilarga tabiiy yoritish sharoiti ko'proq bo'lgan deraza tomondagi chekka stollardan joylar ajratilishi, shuningdek ko'zoynak bilan ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan o'quvchilar istagan joylariga o'tirishini tavsiya qilish;

Somatik kasalliklar (*psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar*)i mavjud bolalarni ko'pincha jismoniy va psixologik muammolarni bir vaqtda boshdan kechirishini inobatga olib sinf eshigiga yaqin qatordagi partaga hamda revmatizm kasalliklari bor, tez-tez angina va yuqori nafas yo'llarining o'tkir shamollashiga moyil o'quvchilarga derazadan uzoqroqqa o'tirish joylari ajratilishi;

Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (*alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish*)ni o'qituvchi hamda boshqa (sog'lom) bolalarni aniq ko'rib turishini inobatga olib oyna tomondagi qatorning old qismlaridagi partalarga joylashtirish;

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (*bolalar serebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi - pakanalik*)ni maktabning birinchi qavatida joylashgan sinfda, mustaqil harakatlanishiga imkon berishni inobatga olib, o'rta qatordagi birinchi partaga joylashtirish (zarur holatlarda maxsus parta talab qilinadi) qolaversa, o'quvchilarning gavdalari buzilishini profilaktika qilish maqsadida, ularning o'sishiga mebel raqami mos kelishi, oxirgi qatorda o'tirganlar bir yilda 2 marta joylarini o'zgartirishlariga sharoit yaratish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalarni jismoniy qiyinchiliklarga duch kelishini, ammo intellektual jihatdan o'z tengdoshlari bilan bir xil ekanligini inobatga olib o'rta qatorga joylashtirish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (*o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji*)ni maxsus pedagogik, tibbiy va psixologik yondashuvlar talab qilinishini inobatga olib o'rta qatorga joylashtirish;

Intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni sinf eshigiga yaqin bo'lgan chetki qatorning birinchi va ikkinchi partalariga joylashtirish;

Xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektorida buzilishi bo'lgan bolalarni eshikka yaqin bo'lgan qatorning devor tomonidan birinchi va ikkinchi partaga o'tirishini taklif qilish;

Intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (*agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq bir oyda bir martadan oshmagan vaqtda*) alohida e'tibor va yondashuv talab qilishini inobatga olib sinfdan hech kimga xalal bermasdan chiqib ketishga qulay bo'lgan eshikka yaqin o'ng tomondagi qatorlarga joylashtirish;

Diqqat yetishmasligi hamda giperaktiv bolalarda diqqatni jamlashda, topshiriqlarni yakunlashda yoki o'rnatilgan tartib qoidalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishini inobatga olib eshikka yaqin bo'lgan qatorga joylashtirish lozim.

Mazkur tavsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"** 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli hamda "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" nizomi hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining **"Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini jihozlashda foydalaniladigan mebellarga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablarini (0057-23-son sanqvan) tasdiqlash to'g'risida"** 2023-yil 7-noyabrdagi 24-sonli qaroridan kelib chiqib tayyorlangan.

1-2-dars. Biz – O‘zbekiston fuqarolarimiz

Dastlab o‘qituvchi o‘quvchilar bilan salomlashish odobini namuna sifatida o‘zi alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan salomlashib o‘zini tanishtirish madaniyatini ko‘rsatib berishi lozim.

Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida ritmik she‘rlar va qo‘shiqlar yordamida tushunchalar hosil qilinadi. Bunda qisqa she‘rlar yoki qo‘shiqlar yordamida bolalarga ta‘sir etish yaxshi natija beradi. Bola jarayon ichida yashaydi, his qiladi.

Dastlab barcha o‘quvchilar darslik, darslikdagi shartli belgilar bilan tanishtiriladi. Yozgi ta‘tilni qanday o‘tkazganligi, nima ishlar bilan mashg‘ul bo‘lganligini aytib berishi lozim.

O‘qituvchi darslar davomida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning xotirasini, bilish darajasini inobatga olib takrorlash hamda qo‘l bilan ushlab ko‘rish, his qilish imkoniyatini berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Eslatma: Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda o‘qituvchilar o‘z kasbini ustasi, hozirgi kunda innovatsion bilim, malaka hamda ko‘nikmalar bilan qurollangan, inklyuziv ta‘limga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanish bo‘lishi, har qanday vaziyatlarda bolalarning ichki va tashqi dunyosini to‘g‘ri tushunishi, ishonch va talabchanlik, qat‘iyatchanlikning mavjudligi, xilma-xil ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to‘g‘ri qaror qabul qilishi, ta‘sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyatining mavjudligi, tashxisiga qarab fikr va mulohazalarini so‘z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o‘quvchi ongiga aniq yetkaza olishi, mashg‘ulot davomida va mashg‘ulotdan tashqari faoliyatda bolalar bilan kommunikativ aloqa o‘rnata olish qobiliyatining bo‘lishi kerak.



O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bir yil davomida "Tarbiya" darsligidan qanday asosiy ko'nikmalarga ega bo'lishni, o'ziga xizmat ko'rsatish, huquq va burchlar, insoniy fazilatlar, tabiatni asrash yuzasidan tushuntirishlar beradi.

Yaxshi o'qish, odobli bo'lish natijasida Vatanimiz kelajagi uchun munosib hissa qo'sha olish mumkinligi alohida e'tirof etiladi.

Na'muna sifatida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lsada yuqori natijalarga erishib kelayotgan bolalar ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ular hech qachon o'zini yolg'iz his qilmasligini, barcha ular bilan birga ekanligi aytiladi.

Shu kabilar orqali barcha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning motivatsiyasi oshiriladi.



O'qituvchi barcha o'quvchilarning diqqatini tashqariga tabiat qo'yniga qarashini aytadi. Musaffo osmonni, go'zal manzaralarni tinchligimizni, chiroyli shaharlarni, so'lim qishloqlarimizni ta'riflab beradi. Berilgan ta'riflar darslikning 4-sahifasida berilgan rasm asosida mustahkamlanadi.

Vatanimiz O'zbekiston boy madaniyati, ko'p asrlik an'analar alohida e'tirof etiladi. Misollar bilan aniq ochib beriladi.

Hammamiz, zamondoshlarimiz, qo'ni-qo'shnilar va do'stlarimiz, oilamiz, qarindosh-urug'larimiz O'zbekiston ekanligimizdan faxrlanishimiz ta'kidlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga barcha o'quvchilar turli oilalarda tug'ilgan, har xil ko'rinishga ega bo'lsa ham yagona bayroq ostida bir davlat fuqarolari ekanligimiz alohida urg'u bilan aytiladi.



Bolalarni nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda ham himoya qilinadi. U uchun juda ham ko'plab xalqaro tashkilotlar mavjud. O'zbekiston 1992-yilda "Bola huquqlari to'g'risidagi" xalqaro konvensiyani imzolaganligini tushuntiradi.

Bu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni Mustaqillik bayrami bilan bir yilda bo'lganligi bilan yodida saqlab qolishiga erishiladi.


Bola huquqlari Akmal va Madina ishtirokida birma-bir tushuntiriladi.



Dastlab konvensiyada yozib qo'yilgan huquqlar **shaxsiy huquqlar** hisoblanib, ulg'aygach **fuqarolik huquqlariga** aylanadi.


Bu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga aniq misollar orqali tushuntirilishi zarur. Har kim bilim olishi, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishi shaxsiy huquqlariga kirsa, jamiyat va davlatdagi o'ziga tegishli voqea-hodisalarga ta'sir ko'rsatish fuqarolik huquqlariga kirishi aytib o'tiladi.

Dars yanada qiziqarli bo'lishi uchun alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ishtirokida kichik guruhlariga bo'linib berilgan savollarga javob beriladi. Bu jarayonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga alohida vazifalar berilib, faolligi oshiriladi.



Barcha o'quvchilar jamoada o'zaro hamjihat bo'libgina qolmasdan o'z huquqlarimizni ham bilishimiz zarur. Undan tashqari vatanimiz oldidagi burchlarimizni ham esdan chiqarib qo'ymasligimiz aytib o'tiladi. Biz aynan oila va maktab chog'idan boshlab burchlarimizga amal qilib borishimiz zarurligi ta'kidlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham oz bo'lsada vatanimiz oldida o'zini munosib hissasini qo'shishidan tortinmasligi aytiladi.

Barcha o'quvchilar bilan birgalikda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham Konstitutsiya haqida umumiy tushuncha beriladi. davlatimiz ham aynan shu Konstitutsiya asosida boshqarilishi tushuntiriladi.



Maktab kutubxonasidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kitobi olib kelib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatilib, ichidan bir nechta moddalar o'qib beriladi.

Barcha o'quvchilar bilan birgalikda qanday burchlarimiz borligi va ularni nima uchun bajarishimiz kerakligi yuzasidan guruhlarda muhokama qilinadi. Har bir guruh a'zolari bergan javoblarga qarab alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham takrorlaydi.

“Men – O'zbekiston fuqarosiman” metodikasi

Bolalarda **“Fuqaro”** tushunchasi, O'zbekiston ramzlari (*bayroq, gerb, madhiya*) haqida boshlang'ich tushuncha shakllantirish va vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish maqsad qilib olinadi.

O'qituvchi savol beradi: **“Biz qayerda yashaymiz?”**, Bolalar javob beradi: **“O'zbekistonda!”**. Demak, **“biz O'zbekiston fuqarosimiz!”**.

O'zbekiston bayrog'i, gerbi va madhiyasi rasmlar orqali tanishtiriladi. **“Fuqaro – bu o'z yurtini yaxshi ko'radigan inson”** degan oddiy tushuncha beriladi.

Amaliy mashg'ulot sifatida bayroq rasmiga rang beriladi. **“Men fuqaroman”** yozuvi ostiga o'z rasm yoki ismini joylashtiradi. Rasmi kartochkadan **“Fuqaro nima qiladi?”** (*toza yuradi, o'qiydi, yordam beradi*) savoliga javoblarni tanlaydi.

“Kim bizning bayrog'imizni tanidi?”, **“Fuqaro nima qiladi?”** degan savollarga berilgan javoblarga qarab har bir bolaga **“Fuqaro yulduzi”** yoki **“Barakalla!”** deyish orqali rag'batlantiriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda Vatanimiz oldidagi burchlarimiz haqida misollar yozib keladi.

3-5-dars. Fuqarolik sifatlari

O'qituvchilar har kuni dars boshlanmasdan oldin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida sinf doskasiga yozib qo'yish va uni bolalar ko'rishga, o'qishga taklif qilinadi. Barcha o'quvchilar ham birgalikda aytishi ham samarali natija beradi. Undan tashqari qisqa she'rlar va qo'shiqlar yordamida ham ta'sir erish mumkin.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda Vatanimiz oldidagi burchlarimiz haqida yozib kelingan ma'lumotlar tinglanadi, rag'batlantiriladi.

Har bir insonda doim muomala odobi, qat'iyat, jasorat,



tartiblilik singari shaxsiy fazilatlar bo'lishi bu yaxshi hayot kechirib, muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi. Bundan tashqari fuqarolik fazilatlar ham bo'lib nafaqat inson balki jamiyat, mamlakat farovonligi uchun ham zarurligi tushuntiriladi.

Boshqalarni hurmat qilish, halollik, adolatlilik, do'stlik, hamjihatlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, Vatanni sevish fuqarolik fazilatlar ekanligi aytiladi.

Bu kabi fazilatlar alohida ta'lim ehtiyojlariga bevosita sinfda o'quvchilar ishtirokida sahna ko'rinishi tashkil qilinib shu asosida yanada tushunarli qilish maqsadga muvofiqdir.



Fuqarolik fazilatlarimizni namoyon qilish orqali mamlakatimizning gullab-yashnashiga o'z hissamizni qo'shamiz.

Fuqarolik fazilatlar barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun berilgan savollarga guruh bo'lib javob beriladi va aniq misollar bilan tushuntiriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda rol bilan qatnashtirishini ta'minlash, bolalarga kunlik davomiy takrorlanadigan jarayonlarni o'rgatish yuzasidan yetarli darajada ijodkorlik salohiyatidan foydalanish, har bir mashg'ulot uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yib, to'g'ri tashkil etib, topshiriq davomida jamoa bilan birgalikda harakat qilishga undash, kun davomida bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilish va buni barcha o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladigan ishlarida e'tiborga olish, ota-onalar bilan muntazam hamkorlikda ish faoliyatini olib borish zarur.

Darslikning 7-sahifasida berilgan rasmlardagi holatlar birma-bir tushuntiriladi. Shu orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yanada aniq yetkazib beriladi.



Berilgan savollar orqali vatan taraqqiyotiga qanday hissa qo'shish mumkinligi ustida ham ishlanadi.

Darslikning 8-sahifasida berilgan matn hamda rasm asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda "Hamjihatlik" tushunchasi hosil qilinadi. Barcha o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun dastlab matn o'qib beriladi, keyin mazmuni ketma-ketlikda tushuntiriladi. Matn qahramoni tomonidan



Jamshidga berilgan yordam natijasida unga ham keyin matematikadan murakkab masalalarni tezroq yechim topadigan usulini o'rgatishi aytib o'tiladi. O'qituvchi hamjihatlikda gap katta ekanligini yana bir bor barcha o'quvchilarga ta'kidlab sinfda hamjihatlikda bajarilgan ishlardan misollar aytib beriladi.

Matn berilgan savollarga guruhli javob berish orqali mustahkamlanadi. Bolalarga his tuyg'ular, yaxshilik qilish, insoniy fazilatlar amaliy misollar orqali savol-javob ko'rinishida beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga hayotda doim bir-birimizga xolis yordam berishimiz, majbur bo'lgandan emas, shunchaki insoniylik yuzasidan yordam bergimiz kelishi, uning evaziga hech narsa kutmasligimiz tushuntiriladi.

Bu kabi ezgu ishlar jamiyatimizning gullab-yashnashiga, insonlar o'zini baxtli his qilishiga sabab bo'lishi har bir bolaga yetkaziladi.

Shu kabi berilgan ma'lumotlar asosida o'quvchilarga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam berib doim hamjihatlikda bo'lish ta'kidlanadi.

Darslikning 9-sahifasida berilgan matn va rasm asosida sinfda qanday fuqarolik fazilatlariga amal qilish, sinfdagi tartibsizlarni oldini olish, ahil bo'lish, bir biriga yaxshi munosabatda bo'lish, a'lo baholarga o'qish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ikkita sinfni taqqoslash usuli bilan o'rgatiladi. Bunda rasmdagi kabi bir tomonga ahil bo'lmagan sinf ikkinchi tomonga esa ahil bo'lgan bir biriga yordam beradigan sinfdagi jarayonlar aytib o'tiladi.



Taqqoslash orqali tushuntirilgan matn ahil bo'lmagan sinf o'quvchilariga qaysi fuqarolik fazilatlarini yetishmaydi, buning oqibatida nimalar yo'qotilyapti, bunday vaziyatdan qanday chiqish mumkin kabi muhokama qilinadigan savollar orqali mustahkamlanadi.

O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yoshi ulug' qadrli insonlarni hurmat qilishdan tashqari hurmatga loyiq ekanligini tushunishi o'rgatish ham zarur hisoblanadi. Bu uchun barcha o'quvchilarni hayot yo'lida, oilasida uchraydigan jarayonlar orqali tushuntiriladi.

Oddiygina sinfdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham boshqa (sog'lom) bolalar bilan bitta sinfda ta'lim-tarbiya olishi hurmatning bitta namunasi ekanligi aytiladi.

Hurmat orqali mutlaqo har xil, notanish odamlar ham bermalol muloqot qilishlari, insonlarning turli sifat va qobiliyatlari kamchilik emas, balki yutuq bo'lib ko'rinishi va bu natijasida barcha birlashib o'zlari qila olmagan juda ko'p yaxshi ishlarni amalga oshira olishi aytib, tushuntirib berilishi zarur.

Hurmat- har qanday, hatto bir-biridan mutlaqo boshqacha insonlarni ham o‘zaro bog‘laydigan ko‘prikdir.



Barcha o‘quvchilar qatorida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ham “**Adolat**” tushunchasi darslikning 11-sahifasida berilgan rasm hamda matn asosida tushuntiriladi.

Hovlidagi tennis stoli atrofidagi jarayon ketma-ketlikda tushuntiriladi. Hayotda kimgadir yomonlik ravo ko‘rilsa uni albatta javobi bo‘lishi aytiladi.



Vaziyat barchaga tushunarli bo'lishi uchun jarayon sinfdoshlar bilan muhokama qilinadi. Bunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham ishtirok etishiga alohida ahamiyat berib borib, jarayon ichida olib kiriladi.



Inson nohaqlik va adolatsizlikka duch kelsa, qattiq xafa bo'ladi, dili og'riydi. Adolatli bo'lish uchun vaziyatni xuddi o'zimizga aloqasi yo'qdek, chetdan turib xolis baholashni o'rganishimiz kerak. Qachonki xolis bo'lsak, adolatli ham bo'lamiz.



Qadimgi yunonlar qonun va adolatni ma'buda Femida qiyofasida tasavvur qilishgan. U qo'lida qilich va tarozi tutgan, ko'zi esa bog'langan. Tarozi – yaxshilik va yomonlik o'lchanadigan mezon ramzi bo'lib, odamlarning taqdiri uning qaysi pallasiga og'ir kelishiga bog'liq deb qaralgan.



Mazkur berilgan ma'lumot va rasm asosida qadimda qonun va adolat qanday o'rnatilganligi yuzasidan ma'lumot beriladi.

O'qituvchi nima uchun Femidaning ko'zini ko'r deb tasavvur qilishganini mohiyatini ochib beradi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham his qilishi uchun ko'zlarini bog'lab nimani his qilganligi so'raladi. Birovga adolatli, xolis munosabatda bo'layotganlikni qanday qilib bilish mumkinligini tushuntiriladi.



Birovlar bilan kelishmovchilik yuz bersa, adolatliroq bo'lishga yordam beradigan qoidalar bilan tanishing.

O'zimizni ularning o'rniga qo'yib ko'raylik. Vaziyatga ularning nuqtai nazari va ko'zi bilan qaraylik.

Adolatli qaror – barcha tomonlar uchun maqbul, to'g'ri qarordir. Aynan mana shunday yechimni izlash kerak.

Vaziyat ko'rib chiqilganda ikkinchi tomon haq, siz esa nohaq bo'lsangiz, buni tan olishga tayyor turishingiz kerak.

Mazkur jadvaldagi har bir fikr alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun aniq misollar bilan yoki sinfda turli jarayonlarni ko'rsatib berish yo'li bilan mustahkamlanadi.

Dars yuzasidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga fikrlarini erkin ishor etish, savollar berish uchun murojaat qilinadi.

Dars yanada mazmunli bo'lishi uchun berilgan qoidalar guruh guruh bo'lib muhokama qilinadi, muhokama jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kichik vazifalar beriladi. berilgan qoidalarga amaliy misol bo'ladigan vaziyatlar o'ylab topiladi.

“Yaxshi fuqaro qanday bo'ladi?” metodikasi

Bolalarga fuqaroga xos xususiyatlar – halollik, tozalik, hurmat, vatanparvarlik haqida tushuncha berish asosiy maqsad qilib olinadi.

Mazkur metodikani o'tkazishda rasmi ko'rsatmalar, o'yinlar, qisqa savol-javob, rasm tanlash yoki ranglash kabi usullardan foydalanish tavsiya qilinadi. O'qituvchi: **“Yaxshi fuqaro qanday bo'ladi deb o'ylaysiz?”** savolini beradi. Bolalar o'z fikrini aytadi yoki rasm tanlash orqali tegishli javobni beradi.

Har bir fuqarolik sifati rasm bilan tushuntiriladi. Halol – rost gapiradi, toza – atrofni iflos qilmaydi, yordamchi – boshqalarga yordam beradi, hurmatli – kattalarni hurmat qiladi, vatanparvar – davlat ramzlarini sevadi.

Har bir bola yaxshi ko'rgan sifatini tanlaydi va rasmini bo'yaydi. O'qituvchi rasmni ko'rsatadi, bola nomini aytadi.

Mustahkamlash maqsadida bolalardan: **“Yaxshi fuqaro nima qiladi?”**, **“Sen qanday fuqarolik sifatni yoqtirding?”** kabi savollari beriladi. Har bir ishtirokchi bolaga **“Yaxshi fuqaro”** yorlig'i yoki **“Ajoyib ishtirokchi”** degan og'zaki rag'batlantirish beriladi.



Uyga vazifa beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda birov bilan kelishmovchilik yuz bersa, adolatliroq bo'lishga yordam beradigan qoidalarga uy sharoitida misol bo'ladigan amaliy vaziyatlar topib kelinadi.

6-dars. Yo'lingiz bexatar bo'lsin

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida real kuzatuvlardan foydalangan holatda tashqariga olib chiqib yoki derazadan kuzatib, bugungi ob-havo qandayligini aytib berish mumkin. Undan keyin boladan qanchalik darajada tushunganligini bilish uchun ob-havo kartochkasini tanlashga taklif qilish, ob-havodagi o'zgarishlarini haqiqiy misollar orqali tushuntirish kerak.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda o'z-o'zini boshqarishning turli shakllarini o'rgatish, har bir bolaning yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va doimiy takomillashtirib borishi, bolalarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish mas'uliyatining bo'lishi zarur.

Uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda Vatanimiz oldidagi burchlarimiz haqida yozib kelingan ma'lumotlar tinglanadi, boshqa shaxslar bilan kelishmovchilik yuz bersa, adolatliroq bo'lishga yordam beradigan qoidalariga uy sharoitidan kelib chiqib topib kelingan amaliy vaziyatlar ko'zdan kechiriladi, rag'batlantiriladi.

Mazkur dars davomida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yo'l harakati qoidalari, transport vositalari, jamoat joylarida o'zini tutish madaniyati shakllantiriladi.


Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga haydovchilar, yo'lovchilar, piyodalar yo'l harakati ishtirokchilar ekanligi takrorlanadi, darslikning 13-sahifasidagi rasm asosida ko'rsatiladi. Ko'chada doim yo'l harakati qoidalariga amal qilish, hushyor va ehtiyot bo'lish zarurligi ta'kidlanadi.



Rasmda berilgan har bir jarayon birma-bir tushuntirib berilishi zarur.

Rasm asosida berilgan qoidalariga nafaqat o'zimiz balki boshqalarni ham xavfsizligi uchun ham amal qilishimiz shartligi tushuntiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun har bir qoidaga amal qilish yoki qilmaslik natijasida qanday holatlar yuzaga kelishi haqida rasmlar asosida ko'rsatib beriladi.

Aytib o'tilgan qoidalar yuzasidan barcha o'quvchilarning fikrini aniqlash uchun darslikning 14-sahifasida joylashgan rasm asosida bolalarning qaysilar qoidalarga amal qilyapti, qaysilar esa amal qilmayotganligi topiladi. Rasmdagi holat bo'yicha qoidalarga amal qilmagan bolalar qanday yomon oqibatlarga olib kelishi, o'zi, atrofdagilarni ham sog'ligiga zarar yetkazishi mumkinligi aytiladi.



Undan keyin o'qituvchi maktab hovlisida turgan velosipedni barcha o'quvchilarga o'z ko'zi bilan ko'rsatib, umumiy tushuncha beradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ham velosiped haqida umumiy tushuncha hosil bo'lgandan keyin unda harakatlanish xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiriladi.



“Yo’lda xavfsizlik – har bir bola uchun muhim” metodikasi

Bolalarga yo'l harakati qoidalarini sodda va tushunarli tarzda o'rgatish, xavfsizlikka rioya qilish odatini shakllantirish maqsad qilib olinadi. Bunda: **“Rasmi ko'rsatmalar, amaliy mashqlar (yo'l belgilarini tanish), mini-o'yin (to'g'ri/noto'g'ri), bo'yash”** kabi usullardan foydalaniladi.

“Siz maktabga qanday borasiz?”, savoli bilan boshlanadi. Asosiy xavfsizlik qoidalari rasmlar orqali tushuntiriladi. Svetofor ranglari: qizil – to'xta, sariq – tayyorlan, yashil – yur, yo'l belgilari (*piyodalar yo'li, ogohlantiruvchi belgilar*), avtobusga faqat to'xtaganida chiqish, ko'chani

faqat piyodalar o'tish joyidan kesib o'tish, har bir qoidaga mos rasm ko'rsatiladi va bir og'izli izoh beriladi.

Sветофор ranglarini to'g'ri moslashtirish (*qizil – to'xta, sariq – tayyorlan, yashil – yur*) o'yin shaklida olib boriladi. Rasmga qarab: **“Bu to'g'rimi?”** savollariga javob olinadi. Rangsiz qilib ishlangan bayroqqa rang berish mashg'uloti (*qizil–sariq–yashil*) o'tkaziladi.

Mustahkamlash (3 daqiqa) maqsadida **“To'g'rimi yoki yo'qmi?”** savol-javob qismi o'tkaziladi. Misol uchun: **“Qizil chiroqda yo'ldan o'tamiz” – “Yo'q!”**, **“Yashil chiroqda yuramiz” – “Ha!”**.

Faol ishtirok etgan har bir bolaga **“Yo'l qoidalariga amal qiluvchi bola”** nomli yorliq yoki **“Ajoyib piyoda”** nomi bilan maqtov beriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi yordamida velosipedda harakatlanish xavfsizligi qoidalariga amal qilgan holatda sayr qilish. Sayr davomidagi ajoyib taassurotlar bilan o'rtoqlashish.

7-dars. Temir yo'l yaqin bo'lsa

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida tabiat bilan bog'lagan holatda tushuntiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi yordamida velosipedda sayr qilish davomida uchragan ajoyib taassurotlari eshitiladi.

Dars tushunarli bo'lish maqsadida turli xildagi ko'rgazmali qurollardan foydalangan holatda guruhlariga bo'linib dars mashg'uloti tashkil qilinadi. Guruhlarda ishlash jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kichik vazifalar berilib, faolligi oshiriladi. Guruhlar nima uchun yo'l harakati qoidalariga rioya

qilish kerakligi yuzasidan fikrlarini aytib o'tishi lozim. Hozirgi kunda yo'lovchi hamda piyodalarga nimalarni tavsiya qilishi haqidagi fikrlari eshitiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tomonidan mavzu yuzasidan berilgan har bir jumalari to'ldiriladi.

Undan keyin mavzu yanada tushunarli bo'lishi uchun berilgan ma'lumotlar hamda rasmlar bir biriga moslab, ma'nosi tushuntiriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagoglar bolalarning psixologiyasini bilishi, o'qitishning interaktiv (o'yinlar tashkil etish) metodlaridan foydalana olishi, bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib ularga yondashuv ko'nikmasining yetarli darajada shakllanganligi, har bir xatti harakatlaridan kelib chiqib erishayotgan yutuqlarini baholash va shu baholash jarayonida aniqlangan bo'shliqlar yuzasidan istiqbolli strategiyalarni amalga oshira olishi, ta'lim-tarbiya berishdan tashqari korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni yuqori saviyada tashkil qilishi, ijodkorlik ko'nikmalarining yuqori bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi zarur.

		
Temir yo'lni faqat piyodalar o'tish joyidan, ko'priklar yoki maxsus yo'laklar orqali kesib o'ting.	Temir yo'l ustida yurmang, uning ustiga hech qanday narsa qo'ymang.	Temir yo'l vagonlarining tagiga kirmang, vagonlar orasidan, ya'ni ular ulangan joydan oshib o'tmang.

	
Temir yo‘l bekatlarida vagonlarga to‘liq to‘xtamaguncha yaqinlashmang, to‘xtab turgan bo‘lsa ham vagonga suyanmang.	Yurib ketayotgan poyezdning vagoniga chiqishga yoki undan tushishga harakat qilmang.

“Temir yo‘l – ehtiyotkorlik joyi” metodikasi

Bolalarga temir yo‘l yaqinida yurishdagi xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish, ehtiyotkorlik va tartib-intizomni shakllantirish maqsad qilib olinadi.

Bunda: **“Rasmi ko‘rsatmalar, “Xavfli – xavfsiz”** mini o‘yini, savol-javob, rolli o‘yinlardan (*Masalan, “Piyoda”, “Temiryo‘lchi”*) foydalaniladi.

“Poyezdni ko‘rganmisiz?”, “Poyezd qayerdan yuradi?” savollari beriladi. Javoblarni berishda rasmlardan foydanilga imkoniyat yaratiladi. Asosiy qoidalar rasmlar bilan tushuntiriladi. Temir yo‘l yaqinida o‘ynamaslik kerak **✗**, eshitish vositasi (naushnik) taqmaslik kerak **✗**, maxsus belgilangan joydan o‘tish kerak **☑**, svetoforga yoki signalga qarab harakatlanish kerak **☑**. O‘qituvchi rasmlar asosida tushuncha beradi va imo-ishoralar orqali mustahkamlaydi.

Bolalarga poyezd kelayotganligini “eshitish” (audio yoki ovozli taqlid) orqali anglashiga yordam beriladi. Mustahkamlash maqsadida **“Temir yo‘l oldida o‘ynash mumkinmi?” – “Yo‘q!”**, **“Qayerdan o‘tamiz?” – “Piyodalar yo‘lidan!”** kabi savol-javobdan tashkil qilinadi.

“Poyezd yaqinida ehtiyot bo‘laylik!” shiori aytiladi va takrorlanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onasi birgalikda berilgan qoidalarni yana bir bor takrorlab, yod olib kelish.

8-dars. Havoning ifloslanishi

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni ko'rgazmali qurollar yordamida tabiat bilan bog'lagan holatda tushuntiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi yordamida yod olib kelgan darslikning 15-sahifasida berilgan qoidalaridan tushunganlarini aytib beradi, o'qituvchi uchragan bo'shliqlarini to'ldiradi.

O'qituvchi barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga maktabga kelish uchun qanday transport vositasidan foydalanganligini so'raydi. Berilgan javoblarni eshitib hozirgi kunda yo'llarda avtomobillarning soni yildan yilga oshib borayotganligi, qolaversa, transportning ham qulay turidan foydalanuvchilar soni ham oshib borayotganligini ta'kidlab o'tadi.

Ko'chalarda eski va yangi mashinalarni farqlash o'rgatiladi. Birgina qop-qora tutun chiqishi ularning eski ekanligini, yangi mashinalardan esa unaqa tutun chiqmasdan atmosferaga zarari kamroq bo'lishini aytib berishi kerak bo'ladi.

Mashina motori ishlashi natijasida paydo bo'ladigan gazlar chiqindi gazlar deyilishini barcha o'quvchilar yodlab olishi lozim.

Chiqindi gazlar to'planib tuman hosil bo'lishi, natijada yo'llarni ko'rish qiyin bo'lib, salomatlik uchun xavf solishi mumkin. Agar odam salomatligiga xavf soladigan bo'lsa bosh og'rib, ko'ngil aynib hatto hushdan ketish alomatlari ham kuzatiladi. Shuni uchun insonlari o'z salomatligini asrashi uchun toza havo muammosini hal qilish uchun mas'ul bo'lishi kerak.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagoglar individual ta'lim rejasini tuzishi, har bir dars o'tkazish uchun zarur bo'lgan didaktik tarqatma va ko'rgazmali materiallar ishlab chiqishi, tarbiyachi, ota-onalar uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar yaratilishi va takomillashtirishda o'z hissasini qo'sha olishi, guruhlarda ishlash, muloqot qobiliyatlarini shakllantirish, mimika, tana harakati va boshqalar jismoniy harakatlarni qoidasi bilan bajartirish ko'nikmalarining mavjudligi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari haqida to'liq xabardorligining bo'lishi zarur.


Berilgan ma'lumotlar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun rasmlardan hamda aniq jarayonlar gavdalantirilgan rasm hamda videolardan foydalaniladi.



Matn savollar asosida mustahkamlanadi. Berilgan savollarga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar kichik jumlar, so'zlar orqali bo'lsa ham javob bersa, o'qituvchi va boshqa qolgan o'quvchilar tomonidan to'ldiriladi.

1952-yilda Angliyada yuzaga kelgan dahshatli ekologik hodisa rasmiy internet sahifalaridagi rasmlari hamda videolari orqali barcha o'quvchilarga ko'rsatiladi.

Havoning ifloslanishi katta shaharlar uchun jiddiy muammo ekanligini inobatga olib, jamoat transportlarini rivojlantirish hamda elektromobillarga o'tish kerakligi maqsadga muvofiqligini aytib o'tish kerak. Tramvay, trolleybus, metro, velosiped, elektromobillardan foydalanish natijasida shaharlar havosi ancha toza saqlanishiga erishiladi. Undan tashqari serqatnov ko'chalar bilan ko'pqavatli binolar o'rtasida butalarni qalin qilib ekish aholi yashaydigan hududlarni jonli devor bo'lib himoya qiladi.



“Havoning ifloslanishi” metodikasi

O‘quvchilarda havoning ifloslanishi va uning salbiy oqibatlari haqida tushuncha shakllantirish, toza havoni asrashga bo‘lgan mas’uliyat hissini uyg‘otish maqsad qilib olinadi.

Bu uchun rasmlar ko‘rsatmalar, savol-javob, bo‘yash va rasm tanlash kabi usullardan foydalaniladi.

Savol-javob tashkil qilinadi. **“Biz nima nafas olamiz?” - javob: “Havo”**. Toza va iflos havo haqida sodda tushunchalar beriladi. Rasmlar orqali toza va iflos havo farqi tushuntiriladi.

Bolalarga rasm tanlash imkoniyati beriladi va **“Qaysi rasmda havo toza?”** deb savol beriladi. Rangsiz ishlangan daraxtli rasm bo‘yaladi.

Mustahkamlash maqsadida **“Nima havoni ifloslantiradi?”** (mashinalar, chiqindilar), **“Biz havoni qanday himoya qilamiz?”** (tozalaymiz, daraxt ekamiz) savol-javob qismni o‘tkaziladi.

Faol ishtirok etgan har bir bola **“Tabiat do‘sti”** deb og‘zaki maqtovladi yoki yulduzcha belgisi beriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onasi birgalikda **“Havo ifloslanishini oldini olish uchun o‘z hissamizni qo‘shamiz”** mavzusida matn yozib kelinadi.

9-dars. Suv zaxiralari

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Havo ifloslanishini oldini olish uchun o'z hissamizni qo'shamiz”** mavzusida yozib kelgan matni tinglanadi va rag'batlantiriladi.

Barcha o'quvchilar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham “Basseyin” hikoyasi orqali suvni tejash madaniyati shakllantiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga to'liq tushunarli uchun hikoyani tushuntirishdan oldin sinfdagi suv jo'mragi biroz ochib qo'yilib, qancha suv sarf

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda psixologlar barcha pedagoglar o'rtasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi haqida tushuntirish hamda bunday bolalarga nisbatan do'stona munosabat muhitini shakllantirishi, barcha ota-onalar (yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan doimiy aloqada bo'lishi, ularni individual rivojlantirish maqsadida turli xil psixologik korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga jalb etishi, ota-onalar ishtirokida master-klasslar tashkil qilishi, ota-onalar (yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar) ga ta'limda ularning farzandlariga nisbatan jamoa hamda sog'lom bolalar tomonidan hech qanday kamsitish hamda zo'ravonlik holatlari kuzatilmassligini tushuntirib bera olishi, doimiy bolalarni psixolog-pedagogik jihatdan o'rganib ular bilan uyda shug'ullanish bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berib borishi zarur.



bo'lganligini bilish maqsadida biror idish qo'yib qo'yiladi.

Rasulga buvisi doim suv jo'mragini yopib qo'y desa ham yopmasligi, doim shivirlab oqib turishini, u dadasi bilan bir kun qishloqqa borishi, yo'l davomida keng dalalar, paxsali uylarni, hamma joy chang ekanligini ko'radi.

Rasul qishloqda Asqar ismli bola bilan tanishib qolib, haqiqiy qishloq hayotini guvohi bo'ladi,

suvni qadrini biladi, qishloq bolalarini orzusi basseyinda cho'milish ekanligini ko'radi.

Uyiga qaytishi bilan buvijoniga birinchi gapi suvni bekorga isrof qilmasligini tushunib yetadi.

Undan keyin hikoya avvalida suv jo'mragidan idishga oqib tushgan suv ko'rsatiladi va qancha suv bekorga sarf bo'lishi mumkinligini amaliy ko'rsatadi.

Vaziyatni o'rganish matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish bilan mustahkamlanadi.

Har bir o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ham suvni qanday tejashi mumkinligi yuzasidan fikri o'rganiladi.



Ichimlik suvidan boshqa maqsadlarda (mashina yuvish, tomorqa sug'orish, hovliga suv sepish) foydalanish yoki oqilona foydalanmaslik (mevalarni muzlatish uchun ochib qo'yish) suvni to'xtatib qo'yish uchun asos hisoblanishi mumkin.

Barcha o'quvchilarga mamlakatimizda suv nihoyatda tanqis ekanligi, bir vaqtlar yurtimizda ulkan Orol dengizi bo'lib hozirgi kunda quriy boshlashi natijasida katta qismi tuzli cho'lga aylanganligi alohida ta'kidlab o'tiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga Orol dengizi haqida ma'lumot berish uchun uning oldingi va hozirgi holatidagi rasmlar taqqoslash yo'li bilan tushuntirib beriladi.

“Suv zaxiralari” metodikasi

Metodika boshlanishida o'quvchilarga suv nima uchun kerakligi oddiy va hayotiy misollar orqali tushuntiriladi: ichish, yuvinish, ovqat tayyorlash, o'simliklarni sug'orish. O'qituvchi rasmlar yoki real buyumlar orqali suv manbalarini (*daryo, ko'l, quduq, yomg'ir*) ko'rsatadi va bu suvlar qayerdan kelishini sodda tilda tushuntirib beradi.

O'quvchilar bilan kichik tajriba o'tkaziladi: ikki xil gulni olib, bittasiga suv quyiladi, ikkinchisiga esa quyilmaydi. Bir necha soatdan yoki bir necha kun davomida farq kuzatiladi. Bu orqali bolalar suvning tiriklik uchun zarurligini amalda ko'radi.

Dars davomida bolalar bilan o'yin o'tkaziladi: **“Kerakmi yoki kerak emasmi?”** degan savollarga javob berishadi (Masalan: **“Suv – ichish uchun kerakmi?”** – Ha. **“Suv – to'p o'ynash uchun kerakmi?”** – Yo'q). Har bir bola o'z fikrini bildiradi.

Bolalar suv manbalarining rasmlarini ranglaydilar yoki **“Suv bor yoki suv yo'q”** degan holatlardan to'g'risini tanlaydilar. Dars so'nggida suvni tejash yo'llari haqida suhbat o'tkaziladi: kranni ochiq qoldirmaslik, isrof qilmaslik, yomg'ir suvidan foydalanish kabi.

Dars yakunida faol qatnashgan bolalar og'zaki yoki belgi orqali rag'batlantiriladi. Darsning boshida aytilgan: **“Suvni asraylik – hayotni asraylik!”** degan shior takrorlanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi birgalikda **“Suvni tejashga o'z hissamizni qo'shamiz”** mavzusida fikrlarini yozib kelishadi.

10-dars. Cho'lga aylanayotgan hududlar

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Suvni tejashga o'z hissamizni qo'shamiz”** mavzusidagi fikrlari tinglanadi va rag'batlantiriladi.

O'quvchilarda darslikning 20-sahifasidagi rasm asosida daraxtlar ildizi suvlarni yuqoriga ko'tarib, suv havzalarini qurib qolishdan saqlashi, mayda chang zarralari va qum zarralarini uchib kirib kelishni oldini olishi aytilishi lozim.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda maxsus pedagoglar ta'lim shakllari va metodlarini qo'llay olishi, tarbiyaviy ishlar metodologiyasi va bolalarda ma'naviy-axloqiy xislatlarini shakllantirishi, bolalar psixologiyasini bilishi, o'qitishning interaktiv (o'yinlar tashkil etish) metodlaridan foydalana olishi, shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib ularga yondashuv ko'nikmasini yetarli darajada shakllanganligi, har bir xatti harakatlardan kelib chiqib erishayotgan yutuqlarini baholash va shu baholash jarayonida aniqlangan bo'shliqlar yuzasidan istiqbolli strategiyalarni amalga oshira oladigan darajada tajriba egasi bo'lishi zarur.



Shuni uchun imkoni boricha ko'proq ko'chat ekishimiz lozimligi ta'kidlab o'tilishi zarur.

Surxondaryo viloyatining sahroga yaqinligini inobatga olib tez tez chang bo'ronlari bo'lib turishi **“cho'llanish”** tushunchasiga bog'lantiriladi va shu

orqali ma'nosi tushuntiriladi. Natijada kuchli **garmsellar** bo'lishi va uning salbiy oqibatlarini aytib o'tiladi. Barcha o'quvchilar bilan birgalikda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ham asosiy tushunchalar hosil bo'lgandan keyin Qarayantosh qishlog'idagi vaziyat muhokama qilinadi. Unda qishloqqa olimlar kelib ko'p daraxt ekishni tavsiya qilib ketishi, buni eshitib Namoz aka ko'chat ekishi va ularga ko'pchilik yordam berish uchun ko'plab saksovul ko'chatlarini olib kelishi ammo birinchi yil ekilgan saksovullar garmselga dosh bera olmay qurib qolishi aytiladi.

Namoz aka yuzaga kelgan muammoni o'rganib, yechimini topdi, ya'ni ko'chatning tagiga loy solib ekilsa qurib qolmasligini aniqlaydi. Undan keyin 50 gektar joyga 15 ming dona saksovul ekdi.

Ekilgan joyni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushuntirish uchun futbol maydonidan 35 tasi 50 gektar bo'lishi aytiladi.

Cho'ldagi o'rmon hikoyasi darslikning 21-sahifasidagi savollar asosida mustahkamlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning cho'llarda daraxt ekish va uni o'stirish yuzasidan fikrlari eshitiladi.

Yirik shaharlarda harorat qishloq joylarga qaraganda 5-7 daraja issiq, havosi ancha quruq bo'ladi, shuni uchun daraxt ekib shaharni ko'kalamzorlashtirish lozim. Ammo shaharlarda joy tanqisligini inobatga olib AQSH, Yevropa va Yaponiya kabi yirik mamlakatlardek chirmashib o'sadigan o'simliklar ekilishi namuna sifatida aytib o'tiladi.



“Cho'lga aylanayotgan hududlar” metodikasi

Metodika avvalida o'quvchilarga yashil tabiat va cho'lning farqi oddiy rasmlar orqali tushuntiriladi. Daraxtlar, o't-o'lan va suvli joylar yashil tabiat deb tushuntiriladi, qum, qurigan yer va butalarning yo'qligi esa cho'lga aylanayotgan hudud belgisi sifatida ko'rsatiladi. Bu tushunchalar sodda va bolaga tushunarli so'zlar bilan izohlanadi.

O'qituvchi bolalarga **“Nega yer cho'lga aylanadi?”** degan savolni beradi va birgalikda sabablar sanab chiqiladi: daraxtlarning kesilishi, sug'orilmasligi, hayvonlarni haddan ortiq boqilishi, chiqindilar tashlanishi va hokazo. Har bir sabab uchun rasm yoki kichik namunaviy buyumlar ko'rsatiladi.

Bolalar bilan kichik tajriba o'tkaziladi: ikki xil tuproqdan biri o'simlikli, ikkinchisi yalanglik bo'ladi. Shamollatgich yoki puflash orqali o'simlikli tuproq joyida qoladi, yalang tuproq esa uchib ketadi. Bu orqali bolalar yerning o'zini o'zi himoya qilishi faqat o'simliklar bilan bo'lishini amalda ko'radi.

Shuningdek, o'yinli metod qo'llaniladi: **“To'g'rimi – noto'g'rimi?”** O'qituvchi aytadi: **“Daraxt ekish yaxshi ishmi?”** – Bolalar **“Ha”** deb javob

berishadi. **“Daraxt kesish kerakmi?” – “Yo‘q”** deyishadi. Bu o‘yin orqali mavzuni mustahkamlash sodda va qiziqarli bo‘ladi.

Yakuniy qismda bolalar dars davomida nimalarni o‘rganganini aytib beradi. **“Yer cho‘lga aylanmasligi uchun nima qilish kerak?”** degan savolga javoblar aytiladi: daraxt ekish, suvni tejash, chiqindilarni tozalash.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onasi birgalikda o‘zi yashab turgan joyni qanday qilib havosini tozaligiga hissa qo‘shishi mumkinligi bilib kelinadi.

11-dars. Chiqindini qayta ishlash

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda o'zi yashab turgan joyni qanday qilib havosini tozaligiga hissa qo'shishi mumkinligi haqidagi fikrlari tinglanadi va rag'batlantiriladi.

Barcha o'quvchilar qatori alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga **"Pokiza shahar"** nomli vaziyatni o'rganish uchun berilgan hikoyasi orqali maktab o'quvchilariga shaharni ozoda saqlash uchun nimalar qilish yuzasidan ma'lumotlar beriladi.

Bunda bir kuni O'zbekistondagi kichik shaharning hokimi shaharni aylanib yurish vaqtida ko'chalarda

chiqindilar uyilib yotganligini guvohi bo'ladi. Bunga sabab chiqindi tashish mashinalari ulgurmayotganligini aytishadi. Aslida xonadondagi chiqindilarni

tashlab kelish uchun 9-11 yashar bolalarga aytilishi, ammo ular chiqindi qutisiga tashlamasdan ko'chaga tashlab ketishar ekan.

Hokim o'quv yilini boshida maktablarga borib o'quvchilardan kim top-toza shaharda yashashni istaydi?- deb so'raydi. Barcha o'quvchilar qo'lini ko'tarishadi, shunda

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda maxsus pedagoglar har bir xatti harakatlaridan kelib chiqib erishayotgan yutuqlarini baholash va shu baholash jarayonida aniqlangan bo'shliqlar yuzasidan istiqbolli strategiyalarni amalga oshira oladigan darajada tajribaga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya berishdan tashqari korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni yuqori saviyada tashkil qilishi, ijodkorlik ko'nikmalarining yuqoriligi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, individual ta'lim rejasini tuzishi, har bir dars o'tkazish uchun zarur bo'lgan didaktik tarqatma va ko'rgazmali materiallarni ishlab chiqish, tarbiyachi, ota-onalar uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar yaratilishi va takomillashtirishda o'z hissasini qo'sha olishi, bolalar bilan guruhlarda ishlash, muloqot qobiliyatlarini shakllantirish, mimika, tana harakati va boshqalar jismoniy harakatlarni qoidasi bilan bajartirish ko'nikmalarini mavjud bo'lishi kerak.



O'quvchilarga **"Siniq deraza nazariyasi"** haqida tushuntiriladi. Amaliy misollar orqali aniq ko'rsatib, misollar orqali tushuntiriladi.

barcha ularga bog'liq ekanligini, hamma chiqindilarni idishiga tashlash lozimligini aytadi.

Hokim o'quvchilar bilan katta odam bilan gaplashgandek jiddiy gaplashishi yanada ularga motivatsiya bo'ladi.

Bu gaplar tezda natijasini ko'rsatadi va shahar O'zbekistondagi eng pokiza shahar paydo bo'ladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan "Pokiza shahar" nomli vaziyatni o'rganish uchun berilgan hikoyasi qanchalik tushunarli bo'lishi qanday qoidalarga rioya qilishni kelishib olganligini so'raladi.

Axlat qutisiga tashlab yuboriladigan narsalarning ko'pchiligi qayta ishlanib yangi mahsulot ishlab chiqariladi va bu qayta ishlash deb ataladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun chiqindidan qayta ishlashning afzalliklari hamda qayta ishlangan mahsulotlardan aniq misollar keltiriladi. Qo'li





bilan ushlab ko'rishga imkoniyat yaratiladi.

Shvetsiyada chiqindilarni maxsus korxonalarda yoqib, undan elektr va issiqlik energiyasi olib yoqiladi. Natijada Shvetsiyada chiqindi qolmasdan boshqa davlatlardan ham chiqindilarini olib ketganligi uchun pul olinadi. Shvetsiya esa ularni olib yoqadi va elektr, issiqlik energiyasini ishlab chiqaradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ekologiyani asrashga qanday yordam bera olishni o'rgatish uchun darslikning 25-sahifasida berilgan rasm hamda ma'lumotlardan foydalaniladi. Har bir rasm nimalardan yasalganligi tushuntiriladi. Rasmda tasvirlangan predmetlar yasalishi natijasida ekologiyaga qanday foyda bo'lganligi aytib o'tiladi. Eski narsalarga zamonaviy tus berib biror predmet tayyorlab ko'rsatiladi.



“Chiqindini qayta ishlash” metodikasi

Metodikani boshlashdan oldin bolalarga oddiy savol beriladi: **“Uyda chiqindilarni qayerga tashlaysiz?”** Ularning javoblari tinglanadi va o‘qituvchi chiqindilar haqida tushuncha beradi. **“Chiqindi bu – kerak bo‘lmay qolgan narsalar”** deb tushuntiradi. So‘ngra o‘qituvchi oddiy narsalarni ko‘rsatadi: plastik butilka, qog‘oz, temir, shisha. Har birini alohida qutilarga tashlanishi kerakligi tushuntiriladi. Bu orqali qayta ishlash tushunchasini shakllantirish boshlanadi.

Bolalar bilan **“To‘g‘ri quti”** o‘yini o‘ynaladi: stol ustiga turli chiqindilar (*sun‘iy yoki o‘yinchoq ko‘rinishida*) qo‘yiladi. Ular esa **“Plastik”, “Qog‘oz”, “Temir”** deb yozilgan qutilarga chiqindini to‘g‘ri solishadi. Har to‘g‘ri javob uchun kichik yulduzcha yoki olqish beriladi.

O‘qituvchi oddiy til bilan tushuntiradi: chiqindini qayta ishlash – eski narsani yangilab ishlatishdir. Masalan, eski gazeta – yangi qog‘ozga, plastik – yangi o‘yinchoqqa aylanadi. Bolalarga o‘zlari ishlatgan shishadan gultuvak yasab ko‘rsatish mumkin, bu ularda qiziqish uyg‘otadi.

Kichik savol-javob o‘tkaziladi: **“Chiqindini yerga tashlash yaxshi ishmi?”** – **“Yo‘q”** **“Butilkani yana ishlatish mumkinmi?”** – **“Ha”** **“Chiqindi atrof-muhitga zarar qiladimi?”** – **“Ha”** Bu orqali bolalarda ekologik ong shakllanadi.

Metodikani o‘tkazish yakunida barcha bolalar chiqindilarni qanday qilib ajratish, ulardan foyda olish va atrof-muhitni asrash bo‘yicha o‘z fikrlarini aytadi. Yakuniy shior sifatida: **“Chiqindini ajrat – tabiatni asra!”** degan so‘z birgalikda aytiladi. Faol qatnashgan bolalarga **“Eko do‘st”** yorlig‘i beriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onasi birgalikda chiqindi mahsulotlaridan olingan tayyor mahsulotlar topiladi va rasmi chiziladi.

12-13-dars. Sog'lom turmush tarzi

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda chiqindi mahsulotlarini qayta ishlash natijasida ishlab chiqilgan tayyor buyumlarini chizib kelgan rasmlarini ko'rib chiqadi hamda vazifalari yuzasidan suhbatlashadi.

Mazkur mavzu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga muhim ahamiyat kasb etadi. chunki sog'lom turmush tarzining birortasi bo'lmasa bolalarning sog'ligiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Shu mavzu orqali bolalarda o'z o'ziga xizmat ko'rsatish malakalari yanada mustahkamlanadi. Ayniqsa shaxsiy gigiyena qoidalariga to'liq amal qilish zarur, chunki bu sog'lik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bir necha amaliy misollar: qo'llarni yuvib yurmaslik natijasida turli xildagi mikroblar sog'lik uchun xavf tug'dirishi mumkin.



maqsadga muvofiq bo'ladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yuvinish uchun nimalardan foydalanish, qanday yuvinish hamda yuvinib bo'lgandan keyin toza ich kiyimlar kiyish o'rgatiladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda o'qituvchilar inklyuziv ta'lim nima ekanligini tushunishi, uning an'anaviy ta'lim shaklidan farqini, bolalarning psixologik holati, yoshi va shaxsiy xususiyatlarini bilishi, o'qitish uchun o'quv jarayonini psixologik, pedagogik, didaktik loyihalash usullarini bilishi, ta'lim muhitining barcha subyektlari (har bir bolalar bilan individual va guruhlarda ishlashi, ota-onalar, hamkasblar, mutaxassislar, menejment vakillari bilan) o'rtasida turli xil pedagogik hamkorlik usullarini amalga oshirish qobiliyatini mavjud bo'lishi, ta'limni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalarining mavjud bo'lishi, o'qish va baholashdan tashqari nogironlik oqibatlarini aniqlashda ham yetarli darajada xabardor bo'lishi zarur.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar berilgan ma'lumotlarni tushunishi uchun qanday holatlarda qo'lni yuvish yuzasidan berilgan ma'lumotlar bir qatorga yoziladi va qo'llar yuvilayotgan jarayon tasvirlangan rasm bilan birlashtiriladi. Namuna sifatida qo'llarni sovunlab yuvib ko'rsatish ham





Tish yuvish ko'nikmalarini alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ota-onasi yordamida o'rgatish tavsiya qilinadi. Tish pastasini yutib yubormaslik aytiladi. Tishi yoki milki og'risa tish shifokoriga murojaat qilinishi tushuntiriladi.

Soch o'sib ketsa sartaroshga murojaat qilinishi, sochni boshqa shaxsning tarog'ida taramaslik, taroqni olish jarayonida ham ahamiyatli bo'lish yuzasidan tavsiyalar beriladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kiygan kiyimi o'ziga ham atrofdagilarga ham hurmatsizlik qilmaydigan darajada toza bo'lishi, yil fasliga, qiladigan ishi va boradigan joyiga qarab tanlashi zarur.

Uyda, maktabda chang to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik, doim nam latta bilan artib tashlash zarurligi tushuntiriladi.



Sog'lom turmush tarzi yuzasidan berilgan ma'lumotlar berilgan qisqa ma'lumotlar o'qib berilib qaysi rasmga taalluqli ekanligini topish bilan mustahkamlanadi. Berilgan savollarga guruhli javob topiladi.

Shaxsiy gigiyena qoidalari haqida batafsil ma'lumot berilgandan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga to'g'ri ovqatlanish yuzasidan tavsiyalar berib o'tiladi.

Bunda o'qituvchi barcha o'quvchilarga:

to'laqonli va me'yorida ovqatlanish;

yeydigan ovqatimizni quvvati, oziq moddalarning tanamizni o'sishi, har kungi faolligi uchun yetarli bo'lishi;

shoshilmasdan ovqatlanish kabilarni tushuntirishi kerak.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga darslikning 28-sahifasida berilgan rasmlarni qaysi guruhlariga kiritish mumkinligi, qaysi vaqti yeyish maqsadga muvofiq bo'lishi, foydali tomonlari ochib beriladi.

Yanada tushunarli bo'lishi uchun rasmda ko'rsatilgan ozuqa moddalarini tabiiysini ko'rsatishga harakat qilish tavsiya qilinadi. Imkon bo'lsa bolalarga yeb ko'rish imkoniyatini ham berish kerak.




Xilma-xil masalliqlardan tayyorlangan taomlar va meva-sabzavotlarni muntazam, shoshilmay yeyish **sog'lom ovqatlanish** deb ataladi.

Gohida bolalar va kattalarda ayrim moddalarga nisbatan alohida sezuvchanlik uchrab turadi va **allergiya** deb ataladi.

Bunday hollarda ba'zi dorilarni qabul qilish yoki ayrim yeguliklarni yeyish mumkin emas. Allergiyasi bor odamlar shifokordan maslahat olishi shart.



Rasmda berilgan mahsulotlarning inson organizmiga foydali xususiyatlari haqida aniq misollar keltiriladi. Har bir mahsulotni qaysi vaqti iste'mol qilish yuzasidan tavsiyalar beriladi.



To'g'ri ovqatlanish yuzasidan berilgan mavzular savollarga javob topish bilan mustahkamlanadi.

Undan keyin jismoniy faollikning foydali jihatlari tushuntiriladi.

Bunda:

Sport o'yinlari hamda raqs bilan shug'ullanish, harakatli o'yinlar yoki muntazam jismoniy mashqlar insonni jismonan baquvvat qilishi;

Bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirib, ruhiy holatiga ijobiy ta'sir qilishi aytiladi.

Sport bilan shug'ullanadigan odam ko'p kasal bo'lmaydi, chaqqon bo'ladi, stresslarga bardoshli, tanasini nazorat qiladi, his-tuyg'ularini jilovlay oladigan bo'ladi.



Ayniqsa ertalabki badantariya mashqlari ham nihoyatda foydalidir. Insonni chidamli qiladi, o'zini tetik, jozibali his qiladi, o'ziga ishonchi ortadi. Yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jismoniy faolligini oshirish maqsadida **“Dam olish daqiqasi”** tashkil qilinadi va yanada amaliyot orqali mustahkamlanadi. Shu orqali bolalarda haqiqiy his qilib ko'rish imkoniyati yaratiladi. Namuna:

**Shamol, shamol bo'libdi,
Qattiq, qattiq bo'libdi,
Endi nima qilamiz?**

Olmalarni teramiz. Shu kabi she'rlardan ham foydalanish mumkin.





Kattalar tomondan qaddingni tik tut deb aytgan gaplaridan hafa bo'lmasada unga amal qilishimiz, shuni uchun hozirdan to'g'ri o'tirish va yurishga amal qilishimiz zarur.

Sport bilan shug'ullanish sog'ligimiz bilan bir qatorda qad-qomatimiz mustahkam bo'lishiga ham yordam beradi. Qomatni to'g'ri tutish sog'liqni mustahkamlovchi yaxshi odatlardan biridir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga to'g'ri kun tartibiga qat'iy amal qilish turli xildagi eslatmalar orqali tushuntirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Oqilona kun tartibiga amal qilish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan bir qatorda ularning ota-onasiga foydali jihatlari ochib beriladi. Maktabda o'qish, uyga berilgan vazifalar jiddiy mehnat hisoblanishi, bu ertalabdan kechgacha bandlikka olib kelishi, shuni uchun vaqtida mehnat qilib, vaqtida dam olish, ochiq havoda sayr qilib turli o'yinlar o'ynab turish zarurligi aytiladi.

Barcha o'quvchilar turib birgalikda "Dam olish daqiqasi"ni tashkil qilishadi.

Har kuni bir vaqtda uyg'onib, kechqurun bir vaqtda uyquga yotish nima uchun tavsiya qilinishi ham tushuntiriladi.

Dars jarayonida chiniqish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga xonalarni shamollatish orqali bajarib ko'rsatiladi. Xonani shamollatish orqali xona havosi o'zgarishi, charchoqlik uyqu alomatlari ketishini ko'rib bolalar chiniqishning foydali tomonini his qiladi.

Undan keyin chiniqishning boshqa foydali turlari bolalarga

aytiladi. Chiniqqan odam salga shamollayvermasligi, hatto epidemiya vaqti ham bardoshli bo'lishi, toza havoda sayr qilish, havo vannasi, yalangoyoq yurish, ho'l sochiq bilan artinish ta'kidlab o'tiladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga suv bilan chiqinqtirishni o'rgatishda ota-onasi bilan hamkorlik qilish tavsiya qilinadi. Iliq suvda cho'milishdan boshlab, suvni haroratini asta-sekinlik bilan pasaytirib borib, keyin quruq sochiqqa artinish bilan yakunlash tushuntiriladi. Bu jarayonni uyda ota-onasi amaliy bajarib ko'rish natijasida bolalar to'liq tushunib oladi. Undan tashqari ko'pchilik o'quvchilarda suvdan qo'rqish ham yo'qolishi mumkin.

Zararli odatlardan xalos bo'lish uchun zararli odatlar va uning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar rasm yoki video holatida ko'rsatiladi.

Undan keyin chekish, alkogol, narkotik moddalar qabul qilish sog'lom turmush tarziga mutlaqo zidligi, ular insonning o'sishi, aqliy rivojlanishiga to'sqinlik qilishi, turli kasalliklarni keltirib chiqarishi tushuntiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni fikrini bilish maqsadida qanday odatlarni shakllantirishni xohlashlari so'rab ko'riladi.

Barcha o'quvchilardan shu vaqtgacha tibbiy ko'rikdan o'tganliklari so'raladi. O'quvchilarning fikrlari eshitilib undan keyin tibbiy ko'rik nimaga kerakligi yuzasidan ma'lumotlar beriladi.



Tibbiy ko'rikdan o'tib turish natijasida inson sog'ligidagi o'zgarishlar haqida xabardor bo'lib turadi. Undan tashqari agar kasallik alomatlari

kuzatilayotgan bo'lsa oldindan harakatni boshlash imkoniyati paydo bo'ladi.



Doim inson o'zini noxush his qilsa shifokorga murojaat qilish zarur.



Uyda vaqti inson o'zini noxush his qilsa 103 nomerga telefon qilib tez tibbiy yordam chaqirishi mumkin.



Barcha o'quvchilar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan ham nima uchun tibbiy ko'rikdan o'tish kerakligi yuzasidan tushunganlarini so'rash kerak.

“Sog'lom turmush tarzi” metodikasi

Bolalarga sog'lom odam qanday bo'lishi haqida savol beriladi: **“Sog'lom odam qanday yuradi? Nimalar yeydi? Qanday ish qiladi?”**. Ularning javoblari tinglanadi va o'qituvchi oddiy jumlar bilan tushuntiradi:

sog'lom odam – harakatchan, quvnoq, ozoda, to'g'ri ovqatlanadigan va sport bilan shug'ullanadigan odamdir.

O'qituvchi bolalarga ikkita rasm ko'rsatadi: biri sog'lom hayot kechirayotgan bolaniki (*yugurayotgan, meva yeyayotgan*), ikkinchisi esa nosog'lom odatlar bilan (*Quritilgan kartoshka bo'lakchalarini yeyish, telefon, divanda yotgan*). Farqni topish so'raladi. Bu usul orqali bolalar ko'z bilan ko'rib, sog'lom turmush tarzi nimaligini tushunadi.

“Sog'lommi – nosog'lommi?” nomli o'yin o'ynaladi. O'qituvchi bir ishni aytadi, bolalar esa qo'llarini ko'tarib **“Sog'lom”** yoki **“Nosog'lom”** deb aytishadi. Masalan: **“Ertalab badantarbiya qilish”** – sog'lom. **“Ko'p quritilgan kartoshka bo'lakchalarini yeyish”** – nosog'lom. Bu o'yin darsga jonli kayfiyat beradi.

O'qituvchi bolalarga sog'lom ovqatlanish haqida qisqacha ma'lumot beradi: meva, sabzavot, sut mahsulotlari foydali, shirinlik va gazli ichimliklarni esa kam iste'mol qilish kerak. Istasa, o'qituvchi kichik taom namunalarini rasm yoki sun'iy mevalar bilan ko'rsatib o'tadi.

Dars so'ngida bolalar bilan **“Bugun nimalarni o'rgandik?”** deb suhbat qilinadi. Har bir bola sog'lom yashash uchun bir tavsiya aytadi: **“Ko'p suv ichamiz”**, **“Uxlash vaqtida yotamiz”**, **“Ko'chada yuguramiz”** kabi. Yakunda **“Sog'lom bola – baxtli bola”** shiori birgalikda aytiladi va faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi birgalikda suvda chiniqish jarayonida o'zini qanday his qilganligini hamda bir kun davomida qanday ovqatlanganligini aytib berishi lozim.

14-dars. Xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerak?

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi yordamida suvda chiniqish jarayonida o'zini qanday his qilganligini, bir kun davomida qanday ovqatlaniganligini aytib beradi.

O'qituvchi tomonidan rag'batlantirilib endi doim ushbu yaxshi odatni qilib yurishi ta'kidlanadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda o'qituvchilar to'g'ridan-to'g'ri muloqot qobiliyati, gnostik ko'nikma, didaktik mahorat, o'yin qobiliyati, tashkiliy ko'nikmalar, kommunikativ-rejissorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyat hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'quv jarayonida bolalarga qanday yordam berishi mumkinligini anglashi, ularning istak, xohishlarini aniqlay olishi, o'zining mutaxassisligini egasi va puxta bilim sohibi bo'lishi, kasbiy mahorat tizimini mukammal darajada shakllanganligi, dars jarayonlarini kasbga yo'naltiruvchi ruhda hayot va amaliyotga bog'lagan tarzda tizimli qilib olib borishi zarur.

	Barcha o'quvchilarda xavfli vaziyatlar haqida tushuncha hosil qilish maqsadida Akmal va Madina suhbatidan foydalaniladi. Suhbat davomida xavfli vaziyatlarning turlari va bunday vaziyatda qanday harakatlanish yuzasidan ma'lumotlar beriladi.	
---	---	---



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga xavfli vaziyatlar deganda – insonlar, ularning mol-mulki yoki atrof-muhit xavf ostida qolgan holat ekanligi tushuntirilishi kerak.

Darslikning 34-sahifasida berilgan QK orqali video namoyish qilinib, yanada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushuntiriladi.

O'qituvchi qanday vaziyatlar xavfli deb hisoblanishini turli misollar bilan tushuntirishi, maktabdagi favqulodda chiqish eshiklarini, favqulodda vaziyatda chiqish sxemalarini ko'rsatib tushuntiradi.


Bizning o'lkamizda ham bo'lib turadigan tabiiy ofatlardan biri bo'lgan zilzila haqida haqida tushuncha berilib, zilzila vaqtida nimalarga amal qilish yuzasidan tavsiyalar beriladi.





Yong'in barcha o'quvchilarga kutilmagan joydan chiqishi, uning oldini olish uchun esa yong'inning asosiy, dastlabki belgilarini bilish zarur.

Yanada tushunarli bo'lishi uchun berilgan materiallar muhokama qilinadi va har bir jumla ta'riflab beriladi.



Dars tushunarli bo'lishi uchun maktabda tashkil qilingan ochiq eshiklar kunida Favqulodda vaziyat vazirligi xodimlarini chaqirish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushuntirish yanada samarali natija beradi. Ular tomonidan yong'inning asosiy sabablari ko'rgazmali qurollar hamda yuzaga kelgan holatlardagi rasm, videolar orqali yanada to'liq tushunishi uchun as qotadi.

Mavzu savollarga javob berish bilan mustahkamlanadi.

“Xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerak?” metodikasi

Metodikani boshlanishdan oldin bolalarga hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan xavfli holatlar haqida savol beriladi: **“Agar uyda yong'in chiqsa nima qilamiz?”**, **“Notanish odam chaqirsa, boramizmi?”**, **“Ko'chada elektr simini ko'rsak nima qilamiz?”** savollar orqali bolalar darsga qiziqib kirishadi va o'zlarining fikrlarini bildiradi.

O'qituvchi xavfli vaziyat degani – inson hayotiga yoki sog'lig'iga zarar yetkazadigan holat ekanini sodda so'zlar bilan tushuntiradi. Olov, elektr toki, notanish shaxslar, yo'l harakati va suvga cho'kish holatlari misol sifatida keltiriladi. Har bir holat bo'yicha kichik rasm ko'rsatilib, u qanday xavf tug'dirishi va nima qilish kerakligi izohlanadi.

Dars davomida **“To'g'ri – noto'g'ri”** o'yini o'ynaladi. O'qituvchi bir holatni aytadi, bolalar esa **“To'g'ri”** yoki **“Noto'g'ri”** deb aytishadi. Masalan:

“Yong‘in bo‘lsa, yostiq bilan olovni o‘chiraman” – to‘g‘ri, **“Elektr rozetkaga qo‘l tiqaman”** – noto‘g‘ri, **“Notanish odam sovg‘a bersa, olaman”** – noto‘g‘ri. Bu o‘yin orqali xavfli holatlardagi to‘g‘ri xatti-harakatlar bilan mustahkamlanadi. Shundan keyin bolalarga **“Kim yordam beradi?”** degan topshiriq beriladi. Rasmda ichki ishlar xodimi, shifokor, o‘t o‘chiruvchi, ota-ona ko‘rsatilgan bo‘ladi. Qaysi holatda qaysi kishiga murojaat qilish kerakligi ustida suhbat qilinadi. Telefon raqamlari **101, 102, 103** kabi raqamlar eslatiladi va birga takrorlanadi.

Dars oxirida bolalardan **“Bugun nimani o‘rgandik?”** deb so‘raladi. Har bir bola xavfli vaziyatda nima qilish kerakligini bir og‘iz gap bilan aytadi: **“Yong‘inda darhol katta odamga aytaman”, “Notanish odam bilan gaplashmayman”, “Elektr simiga tegmayman”**.

Yakunda **“Xavfli holatda – xotirjam bo‘l!”** degan shior aytiladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onasi birgalikda uyda xavfli vaziyatlarda qanday harakatlanish bo‘yicha ma‘lumotlar yozib keladi.

15-16-dars. Qobiliyatlarni rivojlantirish

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi birgalikda uyda xavfli vaziyatlarda qanday harakatlanish bo'yicha yozib kelgan ma'lumotlari eshitiladi va rag'batlantiriladi.

O'qituvchi tomonidan rag'batlantirilib endi doim ushbu yaxshi odatni qilib yurishi ta'kidlanadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda hozirgi kunda innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollangan, nutqi ravon hamda kerakli o'rinda obrazga kira olishi, to'g'ri til ko'nikmalariga kuchli e'tibor qaratilishi, inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi maksimal darajada xushmuomalalik va sabr-toqatni namoyon qilishi, qo'pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo'l qo'ymasligi o'quvchi bilan muloqot do'stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo'lishi berayotgan har qanday ma'lumotida insonparvarlik, samimiylik aks etib turishi zarur.

	Barcha o'quvchilarning qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida Akmal va Madina suhbatidan foydalaniladi. Suhbat davomida katta bo'lganda kim bo'lishni xohlashi, qaysi kasb egasi bo'lib vatanimiz taraqqiyotiga qo'shmoqchi bo'lgan hissasi yuzasidan suhbatlashiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bolalar katta bo'lgandan keyin tanlagan kasblarini o'zgartirishi xatolik emasligi, vaqt o'tishi bilan fikri o'zgarganligi tushuntiriladi.	
---	--	---

Barcha o'quvchilar kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoqchi ekanligi, bu kasb nimasi bilan yoqishi, tanlagan kasbni ustasi bo'lish uchun qanday sifatlarga ega bo'lish kerakligi, bu uchun qanday bilim va qobiliyatlar kerak bo'lishi tushuntiriladi.



Inson o'zini qanday deb hisoblasa, shunday bo'ladi. **“Men buni qila olmayman”** desam, rostdan ham qila olmayman. Lekin **“Men buni uddalay olaman”** desam, ilgari qo'limdan kelmagan bo'lsa ham, endi uddalayman” degan **Mahatma Gandining** gapini mazmuni barcha o'quvchilarga tushuntirib beriladi.

Barcha o'quvchilarga qobiliyat tushunchasining ma'nosi ochib beriladi. Har bir insonda o'ziga yarasha qobiliyati bo'ladi, kimyogar, degustator, oshpazlarni hidni sezish va eslab qolish qobiliyati kuchli bo'lsa sinfdagi har bir o'quvchilarning ham qobiliyatlari bo'ladi. O'qituvchi sinfdagi bir necha o'quvchilarning qobiliyatlaridan misollar keltiradi.

Qobiliyat ham umumiy yoki xususiy bo'lishi, bunda umumiy qobiliyat xotiraning yaxshi bo'lishi misol bo'lsa, musiqiy iste'dod xususiy qobiliyatga misol bo'la oladi.

O'quvchilarga umuman hech qanday qobiliyatsiz odam bo'lmaydi, muhimi o'zingizdagi iste'dod va qobiliyatni aniqlab olish zarurligi aytiladi. Agar inson o'zini hech qaysi sohada sinab ko'rmasa, o'zida qanday qobiliyat, iste'dod borligini tasavvur qilmasa qobiliyatsiz bo'lib qoladi.

O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onasi bilan hamkorlikda ishlab ularning shaxsiy qiziqishlarini aniqlab olib, undan keyin qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qilib olishi zarur.

Mavzu yanada tushunarli bo'lishi uchun qobiliyatlar muhokama qilinadi, o'quvchilar o'zida qaysi qobiliyatlarni rivojlantirishni istashlari va uni qanday qilib shakllantirishlarni aytishi kerak. Bu jarayonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ishtirok etishiga alohida ahamiyat berish zarur.

Darslikning 37-sahifasida berilgan qobiliyatlarni shakllantirish uchun berilgan ro'yxat to'ldiriladi. Qo'shilgan jumlar ma'nosi ochib beriladi.

Estafeta matni orqali vaziyat o'rganilib yechim kiritiladi.

Yakshanba kuni maktabda o'tkaziladigan estafetaga o'quvchilar saralash bilan jarayon boshlab beriladi. sinfga yangi kelgan, hali unchalik kirishib ketmagan, harakatlari beo'xshovdek ko'rinadigan Asqar ismli o'quvchi qatnashmoqchi ekanligini bildiradi. Ammo Laylo unga ishonmasdan biz kuchli bolani tanlayapmiz deb aytadi.

Laylo sinfda oldin Ra'no ismli kuchli va aqlli qiz bo'lganligi, o'tgan yili u tufayli estafetada birinchi o'rinni olganligini eslaydi. Nodira u hozir chet elda maktabga borayotganligi yaxshi til bilmasligi, yangiligi tufayli moslasha olmayotganligini, tengdoshlari qo'lidan hech narsa kelmaydigan o'quvchi bo'lsa kerak deb o'ylayotganligini aytadi.

Shunda Nodira Asqarni yoniga kelib birgalikda harakat qilib uddalashini aytadi.

Shu o'rinda o'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sinfda doim o'zini erkin his qilishi, barcha o'quvchilar ularni qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligini aytib o'tadi.

Vaziyatni o'rganish uchun berilgan Estafeta matni berilgan savollarga guruhli javob topish bilan mustahkamlanadi.

Muhokamalarda yutishga o'quvchilarning yutishga kuchi yetmasa, jamoa bo'lib o'ynaladigan tanlov, viktorinalarda qatnashish kerakmi? Kerak bo'lsa qanday foydalari borligi haqida so'z yuritilishi lozim.





Doim muvaffaqiyat qozonish uchun bilim olishga vijdonan yondashish, olayotgan bilimlarimiz hayotda nihoyatda zarur bo'lishini yodda tutishimiz, qiyinchilikka uchraganda tushkunlikka tushmasdan, ularni yengib o'tishga harakat qilishimiz lozim.

Dars davomida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga motivatsiya berish maqsadida darslikning 39-40-sahifalarida berilgan "Nurxon: kurashish, iroda, g'alaba" nomli fikrlari bilan tanishtiriladi.



Nurxon yoshligida bort kuzatuvchisi (styuardessa) yoki jurnalist bo'lishni orzu qilganligi ammo falokat natijasida orzulari chippakka chiqadi. Avval o'ziga achinib tushkunlikka tushganligi biroz vaqt o'tib bu xatô ekanligini yashashda davom etish lozimligini tushunib ketganligini aytadi.



U Farg'onada kollejga o'qishga kirib Tikuvchilik kasbini egallab, a'lo baholarga tugatadi. O'qish vaqtida uning do'sti sport bilan shug'ullanish mumkinligini aytib, bir nechta misollar keltirganini eslaydi. Shundan keyin u paralimpiada sportiga qiziqib, boshida nisbatan qiyin bo'lganligini uchragan muvaffaqiyatsizliklari u uchun muvaffaqiyat sari qadam bo'lishini ta'kidlaydi.

U birinchi O'zbekiston chempionatida bronza medali, keyin jahon chempionatida qatnashib beshinchi o'rinni egallaganligini, uni doim onasi qo'llab-quvvatlab turganligini aytadi.

Nurxon Qurbonova – nayza, disk va yadro uloqtirish bo'yicha paralimpiada yengil atletikachisi. O'zbekiston terma jamoasi a'zosi. 2020-yilgi yozgi Paralimpiada o'yinlarining kumush va bronza medali sohibasi. 2021-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" unvoniga sazovor bo'lgan.



Muvaffaqiyat – bir muvaffaqiyatdan ikkinchi tomon tushkunlikka tushmay bora olish qobiliyatidir.

Uinson Churchill

Dars Nurxonning hayot yo'li berilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish bilan mustahkamlanadi.

"Qobiliyatlarni rivojlantirish" metodikasi

Bolalarga oddiy savol beriladi: **"Kim qanday ishni yaxshi ko'radi?"** Ular javoblarida rasm chizish, raqs tushish, she'r aytish, qo'shiq kuylash yoki sport bilan shug'ullanish kabi o'zlariga yoqadigan mashg'ulotlarni aytadi.

O'qituvchi shunda: **“Mana shu ishlar sizning qobiliyatingiz hisoblanadi, har kimning o'ziga xos qobiliyati bo'ladi”** deb aytadi.

So'ngra o'qituvchi qobiliyat so'zining ma'nosini oddiy til bilan tushuntiradi. Bu – odamning nimagadir layoqati borligi, uni yaxshi bajara olishidir. Qobiliyat tug'ma bo'lishi yoki mehnat bilan rivojlanishi mumkinligi aytiladi. Bolalarga mashhur sportchilar, rassomlar yoki ixtirochilarning rasmlari ko'rsatiladi va ularning qanday mehnat qilib yuksalganliklari haqida qisqacha hikoya qilinadi.

Dars davomida **“Men nimalarga qodirman?”** mashg'uloti o'tkaziladi. Bolalarga qog'oz berilib, unda o'zlari yaxshi bajara oladigan ishlarni rasm orqali ifodalash yoki o'qituvchiga aytish so'raladi. Kimdir raqs chizadi, kimdir shifokor bo'lishni istaydi, yana kimdir sportchi bo'lishni. Har bir bola o'z qobiliyatini tan olishni o'rganadi.

“Qobiliyatlar do'koni” o'yini o'tkaziladi. O'qituvchi **“Do'konchi”** bo'ladi, bolalar esa o'zlariga mos qobiliyat **“Sotib olishadi”**. Ular turli **“Kartochkalar”** orasidan birini tanlab, nima uchun aynan o'sha qobiliyatni tanlaganini aytadi. Masalan: **“Men ashula kartasini tanladim, chunki kuylashni yaxshi ko'raman”**.

O'qituvchi dars davomida bolalarga: har bir insonning o'ziga xos qobiliyati bor, uni tanib olish va mashq qilish kerak, deb tushuntiradi. Qobiliyat vaqt o'tgan sari mehnat bilan yanada kuchayadi. Eng muhimi, har bir bola o'zini foydali, iste'dodli deb his qiladi.

Dars yakunida har bir bola o'zining eng yaxshi qobiliyatini nomlaydi va boshqalarga **“Sen mana shunda zo'rsan”** deb bir og'iz iliq gap aytadi. Bu orqali bolalarda o'zaro ishonch va ijobiy fikrlash shakllanadi.

Metodika **“Qobiliyatim – baxtim kaliti”** shiori bilan tugaydi.



Uyga vazifa beriladi. Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasining fikrlarini inobatga olib kelajakda qanday kasb egasi bo'lishini maslahat qilib keladi.

17-18-dars. O'qing va uqing

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda ta'lim jarayonini tashkil qilishda texnologiya bilan bog'lab, didaktik va ko'rgazmali materiallar asosida o'qitish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'zining mutaxassisligi bo'yicha mukammal bilimga ega, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi, bolalarning rivojlanishidagi holati, o'zlashtirishi hamda shaxsiy qiziqishlaridan kelib chiqib ko'rgazmali qurollar hamda metodikalar ishlab chiqa olish salohiyatiga ega bo'lishi, intellektual rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini aniqlash, ularni bartaraf etishni o'zining mas'uliyati deb bilishi hamda bunday bolalar bilan aloqada bo'lgan yoki ularga ta'lim berayotgan boshqa hamkasblari uchun yo'l-yo'riq ko'rsatish, ta'lim organlari va yaqin atrofdagi boshqa maktablar bilan tajribalarini baham ko'ra oladigan darajasida tajribasiga ega bo'lishi zarur.

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasining fikrlarini inobatga olib kelajakda qanday kasb egasi bo'lishini aytadi, o'qituvchi bolalar tanlagan kasblarining foydali jihatlari hamda jamiyatda tutgan o'rni haqida aytib beradi.

	Barcha o'quvchilarni saboq olishni o'rgatish maqsadida Akmal va Madina suhbatidan foydalaniladi. Suhbat davomida Madinaning xomushligi va bunga sabab uyda mashq qilib kelsa ham maktabda konsert davomida fortepiano chalayotib bir necha marta adashib ketganligini aytadi. Akmal esa xafa bo'lmasligini hayajondan hamma adashishini, keyingi konsertda qoyil qilib chalib berishini, dastlab oddiy mashqlarda ham xato qilib hozir murakkab pyesalarni ham ijro etayotganligini tushuntiradi.	
---	---	---

Barcha o'quvchilardan nega odamlar xato qilishi mumkinligini va bu qanchalik yomonligi haqidagi fikrlari o'rganiladi.



“To'rt oyog'li bilan ot ham qoqiladi”, deydi dono xalqimiz. Adashib, xato qilish ayb emas, bu xatoni tuzatmaslik aybdir.

Shu o'rinda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga berilgan topshiriq davomida xatoga yo'l qo'ysa yana bajarishi uchun imkoniyat berish hamda ularni rag'batlantirish muhim.

Inson hayotda xato qilganda noqulay ahvolga, tushkunlikka tushishi, harakat qilishning foydasi yo'q deb xayolga borishi aslida u biz o'ylaganchalik yomon emasligi, inson hech qachon noumid bo'lmasligi, xatolar tufayli yangi narsalarni o'rganishimiz mumkin.

Ilgari qilmagan ishimizni qilsak birdaniga yaxshi natija chiqmaydi. Xato va kamchiliklar kuzatiladi. Bu barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham misol orqali tushuntiriladi.

Tasavvur qilinadi, muz ustida uchayotgan odam dastlab qoqiladi, toyib yiqiladi. Tinimsiz mashq natijasida bir kuni kelib, murakkab va chiroyli sakrashni amalga oshirishni o'rganib oladi.




Faqat hech narsa qilmagan odam xato qilmaydi.
Bunga misol qilib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning o'zi misol qilib ko'rsatiladi. Maktab boshlangan vaqti u juda ham ko'p xatolar qilganligi, lekin samarali mehnat natijasida hozirgi ijobiy natijalarga erishilganligi eslatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar yanada to'liq tushunishi uchun misollar orqali mustahkamlanadi. Shu vaqtgacha bolalar yangi bo'lgan va birinchi marta uringanda qiynalgan ishlar aytiladi. Avval bu ishlarni qila olmagandan keyin vaqt o'tib usta bo'lib ketganligi eslanadi. Bolalardan boshida nimalarni his qilganligini, o'rganib olganidan keyingi holatlar yuzasidan fikrlari so'raladi.

Inson hayoti davomida biror ishni uddalay olmasa, xafa bo'lib dunyo ko'ziga tor ko'rinadi. Bunday vaziyatda avval uddalay olmagan keyin o'rganib olib osondek tuyulganligini, bir yil oldin yecha olmagan masalalarni endi osongina yecha yotganliginimizni, bir yil oldan eslab qolmagan narsani hozir yoddan bilishimiz. Mana shu kabilarni eslasak kayfiyatimiz ko'tarilishi ta'kidlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun amaliyot



bilan bog'lab ketiladi. Bunda uzoq yo'lga chiqqan sayyoh yo'lda duch kelgan dovondan o'ta olmasa tushkunlikka tushadi. Bunday vaziyatda sayyoh shu vaqtgacha bosib o'tgan yo'lini, mashaqqatli vaqtlarini eslaydi, hozir ushbu qiyinchiliklar osondek ko'rinadi. Undan

tashqari bunday vaqtda xotirjam bo'lishi, qat'iyatidan faxrlanishi natijada o'ziga ishonchi ortishi mumkin bo'ladi. Natijada ertaga o'sha dovondan osongina o'tib olishiga motivatsiya bo'ladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni darslarga qiziqtirishning usullaridan biri aqlni charhlovchi mashg'ulotlar hisoblanadi. Misol uchun Ismoil ismli o'quvchi matematikadan oson boshqotirmalarni yechishni yaxshi ko'radi. O'qituvchisi tomonidan sal qiyinroq bo'lgan boshqotirmaning yechishni taklif qilganda taklif qilganda **“Juda murakkab boshqotirmaga o'xshaydi, yecha olmasam kerak”** deb javob beradi. O'qituvchi **“Hechqisi yo'q, agar noto'g'ri yo'ldan borib xato qilsang, boshqa yo'lini qidirib ko'rasan”** deb motivatsiya beradi. Sportchilar mushaklarini og'ir yuk ko'tarib chiniqtiradigan bo'lsa, qiyinroq misollarni yechib miyamizni mashq qildiriladi.



Ilmiy tadqiqotlar miyaga yangi murakkab masalalar qanchalik ko'p yuklansa, shunchalik yaxshi rivojlanishi tasdiqlagan. Murakkab masalalarni yechishda xatoga yo'l qo'yilsa buning qo'rqinchli joyi yo'qligi, xato qilishdan qo'rqish yoki faqat baho olaman deb oson yo'lni tanlamaslik zarur. Bunday holatda miya rivojlanmaydi.

Inson biror ishni qilish uchun xato qilishdan qo'rqmaslik uchun bir necha olimlarning fikrlari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar aytib o'tiladi.

Inson xato qilishi tabiiy. Adashmagan xato qilmagan odam haqiqat nimaligini bila olmaydi. Hayotda bizni to'g'ri yo'lga yo'naltirgan ham aslida bizning xatolarimizdir. Biz xatolar qilish jarayonida hayotni o'rganamiz.

Dilfuza Egamberdiyeva,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor,
Butunjahon fanlar akademiyasi a'zosi




Xatodan, ayniqsa ilm sohasida xato qilishdan qo'rqmang. Tadqiqotchilar o'z xatolaridan xulosa chiqaradilar, o'rganadilar. Xatolar olimni yanada bilimli va kuchli qiladi.

Anvarjon Abdujabborov,
fizika-matematika fanlari doktori, professor



Xatolar foydali:

nimaga ko'proq e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatib beradi;
odamni o'ylashga majbur qiladi;
masalalarni mohiyatini yechishga undaydi;
vaziyatni qanday bo'lganligini, gap nimada ekanligini tushunib yetamiz;
olg'a qadam bosishga yordam berishi aniq misollar bilan tushuntirib beriladi.



Bilish hayratlanishdan boshlanadi.

Arastu, yunon faylasufi

Dars yanada qiziqarli bo'lishi uchun kashfiyot yoki ixtirolarga biror xato yoki tasodif ham sabab bo'lishi mumkinligi aniq misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Jon Pembertonning yordamchisi dori izlab, tasodifan koka bargi bilan kola yong'og'ini gazli suvga aralashib, koka kola ixtiro qilgan.

Persi Spenser degan muhandis magneton yonida turganida cho'ntagida shokolad erib ketgan, shundan keyin mikroto'lqinli pechlar yaratilgan.

Yangilik qilish uchun:

hech kim yurmagan yo'llardan yurish;

birovlar uchun mutlaqo g'alati, bema'ni deb hisoblagan narsani ham qilib ko'rish;

hech kim muammo ko'rmayotgan joyda ham xayoliga kelgan savolni berishdan tortinmaslik;

bir-biriga o'xshamaydigan narsalar o'rtasidagi bilinar-bilinmas bog'liqlarga ham e'tibor berish kerak.

Ayniqsa qanday qilib yangiliklar qilishni o'rgatishda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga samarali natija beradi.

Bunday bolalar o'zidagi jismoniy yoki psixologik muammodan tortinib yurishadi.

Darslikning 46-sahifasida berilgan fikrlarning qaysilariga qo'shilish yoki qo'shilmaslik muhokama qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham inobatga olib har bir fikr mazmuni tushuntirib beriladi.

O'qishda eng muhimi – xato qilmaslik.

Xatolar ahmoqlik yoki dangasalik tufayli sodir bo'ladi.

Agar odam tez-tez xato qilsa, undan hech narsa chiqmaydi.

Xatoni payqasangiz, uni tuzatishga harakat qiling, zarurat bo'lsa yordam so'rang.

Xatolar va kamchilik – bu o'qish-o'rganishning bir qismi.

Xato – chuqurroq tushunib olish uchun yaxshi imkoniyat.

Nimadir sizga tushunarsiz yoki g'alati tuyulsa, so'rashdan tortinmang.

Javobi yo'q savol – vaqti kelib yangi, kutilmagan ma'lumotni bilib olishingiz uchun imkoniyatdir.

O'yin – bekorchi va behuda ish.

O'yin ba'zan biror yangi narsani tezgina o'rganib olishga yordam beradi.

Fikrlar muhokamasidan keyin barcha o'quvchilar bilim so'zining ma'nosi bilan tanishtiriladi.

Bilim – bu olimlar tomonidan muhim savollarga topilgan javobdir.

Agar savollar berilmasa insoniyat umuman rivojlanmagan bo'lishi, hatto yo'q bo'lib ketishi mumkinligi tushuntiriladi.

Yoshlar juda ko'p savol berganligi uchun ular tez rivojlanadi. Inson hech qachon tushunmagan, bilmagan narsasidan so'rashdan tortinmasligi, bu aqlni charxlaydi, dunyoqarashni kengaytiradi.

O'quvchilarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hamda havaskorlik xislatini oshirish maqsadida faol o'quvchilar namuna sifatida ko'rsatiladi.

Rufat Matkarimov. U 8 yoshda, Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi maktablarning birida o'qiydi. Zakovat intellektual o'yinini juda yaxshi ko'radi. Shuning uchun "Zakovat" klubi professional ligasining doimiy ishtirokchisi.



Bilimli hamda zukko o'quvchilarni aniqlash maqsadida "Zakovat" intellektual o'yini tartibi bilan tanishtiriladi. O'yinda ishtirokchilarga savollar berilishi va uni belgilangan vaqt ichida to'g'ri javob topish vazifasi beriladi.

O'yinda eng ko'p to'g'ri javob topgan jamoa g'olib hisoblanadi. Respublika final bosqichida g'olib bo'lgan jamoaga "Zakovat" klubining stipendiyasi beriladi jamoa a'zolari oliy o'quv yurtiga imtihonsiz qabul qilinishi aytiladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham "Zakovat" intellektual o'yini tartibi bilan tanishtirish maqsadida biror darsda o'yinni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'yinda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga biror vazifa berib ishtirokini oshirish lozim.

"O'qing va uqing" metodikasi

Metodika o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish uchun ertak so'zlash bilan boshlanadi. O'qituvchi bir necha jumladan iborat qisqa ertakni o'qib beradi, masalan, kitobni sevgan bola haqida. So'ngra bolalardan: **"Bu bolaga nima yoqadi?"**, **"U kitobni nima uchun yaxshi ko'radi?"** kabi savollar beriladi. Bu orqali bolalar dars mavzusiga qiziqib kirishadi.

O'qituvchi o'qish nima uchun kerakligini oddiy misollar bilan tushuntiradi: o'qish orqali ertaklarni bilamiz, dunyoni taniymiz, aqlli bo'lamiz. U bolalarga: **"O'qigan odam – o'rgangan odam"**, degan maqolni aytadi va bu nimani anglatishini birgalikda muhokama qiladi.

Mashg'ulot davomida **"Qaysi rasm kitobga mos?"** nomli o'yin o'ynaladi. Stolga bir nechta rasmlar qo'yiladi (Masalan: *qush, daraxt, shifokor, maktab*), so'ngra o'qituvchi qisqa matn o'qib beradi. Bolalar matnga mos rasmni topishadi. Bu usul ularning tinglash va tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shundan keyin har bir bola o'z sevimli kitobini (*Yoki o'qigan biror hikoyani*) eslab, uning qahramoni haqida qisqacha aytib beradi. Agar bolalar hali yaxshi o'qiy olmasa, u holda o'qituvchi rasmlı kitobdan o'qib berib, ularning fikrini so'raydi. Bu orqali o'qishga nisbatan mehr uyg'otiladi.

Metodika yakunida o'qituvchi bilan birgalikda kichik shior yodlanadi. **“Kitob – do'stim, bilim – kuchim!” yoki “O'qib-o'rganaman, bilimga yetaman!”**. Bolalarga uyda ota-onasi bilan birga o'qish uchun oddiy ertak yoki she'r topshiriladi. Metodika ijobiy, ilhomlantiruvchi kayfiyatda yakunlanadi.



Uyga vazifa beriladi. Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasining fikrlari asosida kelajak uchun biror maqsad qo'yib, maqsad sari harakat qilishda qanday bilim olish kerakligi haqida reja tuzib kelinadi.

19-21-dars. Bizning harakatlarimiz


Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda maxsus pedagoglar umumta'lim maktabidagi pedagoglar, maktab ma'muriyatlari va ota-onalar uchun intellektual nogironligi bo'lgan bolalar bilan bog'liq ochiq darslar, master klasslar tashkil qila olish salohiyatiga ega bo'lishi, bolalar bilimini baholash, nazorat qilish usullarini olib bora olishi, o'zlashtirishini, faolligini rag'batlantirish, yosh psixologiyasi va fiziologiyasini, o'quv jarayoni texnik vositalarini amaliyotda qo'llash yuzasidan salohiyatini yuqori darajada bo'lishi, individual ta'lim rejasini tuzishi, har bir dars o'tkazish uchun zarur bo'lgan didaktik tarqatma va ko'rgazmali materiallarni ishlab chiqish, o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar yaratilishi va takomillashtirishda o'z hissasini qo'sha olishi zarur.

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasining fikrlari asosida kelajagi uchun maqsad qo'yib, maqsad sari harakat qilishda qanday bilim olish kerakligi haqida tuzib kelgan rejasini aytib beradi.

Yangi odamlar bilan tanishilganda avval ismlar aytiladi, undan keyin o'zi, oilasi, qiziqishlari va erishgan yutuqlari haqida gapirib beradi. Undan keyin o'zlari haqida dastlabki tasavvurlari paydo bo'ladi. Aslida insonni kimligi aytgan so'zlarida emas amallar, xatti-harakatlar ko'rsatadi. Amallarimizga qarab ishonsa bo'ladimi, muhim vazifa topshirsa, mas'uliyat bilan yondashish, mustaqil harakat qilishga qodirligimiz bilib olinishi aytib beriladi.

O'qituvchi barcha o'quvchilarga "Qo'ng'iroq soati" hikoyasini obrazga kirib tushuntirib beradi. Hikoya qahramoni Sevaraga oyisi bergan aqlli soatni o'quvchilarga ko'rsatib hikoyada tasvirlangan qulayliklarini ko'rsatib beradi.



Hikoya mazmuni tushunarli bo'lgandan keyin qanday tugashi mumkinligi haqida turli voqealar rivojiga misollar keltiriladi. Nima sababdan Sevarani aqlli soat uyqudan uyg'ota olmaganligi, bunday holat boshqa bo'lmasligi uchun qanday maslahat berish mumkinligi, hozirgi vaziyatda qanday mustaqil bo'la

olayotganligi haqida mulohaza tashkil qilinadi.

Mazkur "Qo'ng'iroq soati" hikoyasi orqali o'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga zamonaviy aqlli



texnologiyalardan foydalanish, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashish, to'g'ri kun tartibiga amal qilish kabi tushunchalar shakllantiriladi.

Barcha o'tilayotgan darslar tushunarli bo'lishi uchun o'quvchilarga hayot bilan bog'langan hikoyalardan foydalaniladi. Bunda darslikning 50-sahifasida berilgan "O'yinqaroqlik" hikoyasidan foydalanish samarali bo'ladi.

Bunda Davronga har kuni darslar va uydagi ishlarni qilib bo'lib, sport mashg'ulotlariga borib kelib kompyuterda yarim soatga o'ynashga ruxsat berilgan.

Bir kuni Davronga ekologiyadan referat tayyorlash uchun kompyuter kerak bo'lib oladi va tezda vazifani tayyorlaydi. Keyin u o'yinga qiziqib ketib qanday vaqt o'tib ketganligini bilmay ham qoladi. Natijada singlisini bog'chadan olish vaqtidan o'tib ketadi. Ko'chaga tezda chiqib qarasa dadasi singlisini olib kelayotganligini ko'radi. Davron dadasi va singlisidan uzr so'raydi.

Berilgan hikoya alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun savollarga javob topish bilan mustahkamlanadi.

"O'yinqaroqlik" hikoyasi orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga har bir vazifaga mas'uliyat bilan qarash, kompyuter o'yinlariga chalg'ib qolmaslik tushunchalari shakllantiriladi.



Vaqtни boshqarish uchun barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tavsiyalar:

bajara olishingiz mumkin bo'lgan ishlar rejasini tuzish va amalga oshirish;

ish joyingizni tartibga keltiring, dars tayyorlayotganda telefoningizdagi ovozlarni o'chirib qo'ying;

qiyin ishlarni bir nechta oson ishlarga bo'lib chiqish, bajarish uchun uzoqroq vaqt berish;

vaqtida ishlab, vaqtida dam olish, 25 daqiqa ishlab, orada 10-15 daqiqa dam oling.

Darslikning 51-sahifasida berilgan "Birovning ruchkasi" hikoyasi orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga har xil vaziyatlarga tushib qolganda xolis yo'l tutish, qilayotgan ishimiz to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilmasak kattalardan, o'rtoqlarimizdan, o'zimiz ishongan boshqa yaqinlarimizdan so'rash kerakligi tushuntirib beriladi.

Bunda hikoyada keltirilgan sinfga yangi qiz kelib matematika darsida mushukcha shaklidagi qopqoqchali ruchkasini yo'qotib qo'yganligini aytadi.

Barcha o'quvchilar Asilbekni qo'lida shunaqa ruchkani ko'rib uni olganligini aytishadi. Ammo Asilbek unaqa ruchka oldindan borligini Erkin

bilsa-da barcha o'quvchilarga ayta olmaganligidan afsuslanayotganligi haqida so'z yuritiladi.

Berilgan hikoya darslikning 52-sahifasida berilgan savollarga guruh bo'lib javob berish yo'li bilan mustahkamlanadi.



Erkin Asilbekning yonini olganda nima bo'lar edi?, Erkin, Asilbek, yangi kelgan qiz va boshqa o'quvchilarning rolini o'ynab sinfda holat takrorlanib ko'riladi. Hikoyada keltirilgan vaziyatga o'xshash bir nechta mulohazali savollar beriladi. Shu orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar yanada to'liq

tushunishiga erishiladi.

Kitob hikoyasi orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga va'da berish, berilgan va'dani o'z vaqtida bajarish, do'stlik munosabatlarini mustahkam qilish, insonlarni har xil vaziyatlarda tushunish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Hikoyada kutubxonada bitta qolgan kitobni Ra'no Davron birinchi ko'rib qolganligi uchun unga berganligi, Davron uni tezda o'qib dushanba kuni Ra'noga berishi bilan boshlangan.

Davron tezda o'qib bo'lib Ra'noga beraman deb turgan vaqtida Behzod kelib qolib bir kunda o'qib tugatib, Ra'noga o'zi berishini aytadi.

Dushanba kuni Ra'no Davrondan kitobni so'raydi, lekin Behzod bermagan bo'ladi. Davron Behzodga telefon qilganida u maktabda betoblighi uchun kela olmay qolganligini va kitobni olib bormaganligi uchun uzr so'raydi. Davron o'qishdan chiqib Behzodni uyidan kitobni olib Ra'noga berishini aytadi. Ra'no ham bunga rozi bo'ladi. Shu usulda o'qituvchi hikoya mazmunini alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga aytib berishi tavsiya qilinadi.



Hikoya barcha o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilinadi, bolalar bu vaziyatdan qanday qilib muvaffaqiyatli chiqishganligini, bu uchun qanday so'zlar va xatti harakatlar yordam berganligi haqida so'z boradi. Berilgan savollarda jamoaviy javoblar topiladi.

Undan tashqari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga hozir o'quvchi bo'lsa-da ba'zi narsalarni o'zicha tuzatish, to'g'rilash qo'llaridan kelmasligi, lekin buni sezish, kattalarni yordamga chaqirish kerak bo'lishi va mas'uliyat shu tarzda namoyon bo'lishi aytiladi. Istalgan vaqtda, oddiy kunda ham qandaydir xavfli yoki noto'g'ri ish bo'layotganligini ko'rib qolishimiz tabiiy holat ekanligi tushuntiriladi.

Aytilgan fikrlar yanada tushunarli bo'lishi uchun darslikda berilgan **“Muhim qo'ng'iroq”** hikoyasi diqqat bilan tinglanadi. Zulfiyaning qilgan yaxshi ishi natijasida favqulodda vaziyatlar xodimi hamda dadasining “Barakalla”, “Biz sen bilan faxrlanamiz” kabi rag'batli so'zlarni barcha o'quvchilarga ham motivatsiya berish turli xil vaziyatlarga befarq bo'lmaslikka chaqiradi.

Qolaversa, turli xildagi favqulodda vaziyatlarda qaysi raqamlarga qo'ng'iroq qilish lozimligi aytiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham raqamlarni yodlab qolishi uchun turli xildagi vaziyatlarda tezlik bilan yetib keladigan xodimlarning kiyimlari, xizmat mashinalarini rasmi bilan moslab ko'rsatiladi.

“Muhim qo'ng'iroq” hikoyasi yuzasidan berilgan savollarga javob topish yo'li bilan mustahkamlanadi.



Atrofimizdagi olamni yaxshilanishi har birimizdan boshalanadi. Yoshingiz ulg'aygan sari o'zingiz va boshqalarning manfaati uchun hayotga ta'sir qilish imkoniyati ko'payib boraveradi.

O'quvchilarni hayvonot dunyosi hamda tabiat bilan yanada tanishtirish maqsadida Toshkent hayvonot bog'i haqida tanishtiriladi. Imkoni bo'lsa alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onasiga farzandini hayvonot bog'iga olib kelish tavsiya qilinadi.

Hayvonot bog'ida sayr qilish qiziqarli, u yerda noyob hayvonlar o'z ko'zimiz bilan ko'rib tomosha qilishimiz mumkin. Xodimlar har bir hayvon haqida gapirib, bog'ni aylantirib chiqishadi.

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham hayvonlarga mehribonlik ko'rsatishi zarurligini darslikning 56-57-sahifalarida berilgan **“Jonzotlarni sevamiz”** hikoyasi orqali tushuntirib beriladi.

Nasiba ismli qiz hayvonot bog'iga borib ko'pchilik odamlarni qoidalarini buzayotganligini guvohi bo'ladi. Shuning uchun u hayvonot bog'ining rahbari bilan gaplashib, hayvonot bog'i uchun volontyor bo'ladi. Nasiba hayvonot bog'iga kelganlarni oldiga borib qoidalarini tushuntiradi. Nasibaga tez orada Lobar, Alisher, Komila qo'shiladigan bo'ldi. Natijada hayvonot bog'idagi qoidalar kam buziladigan, hayvonot bog'idagi hayvonlarga qulayliklar yaratildi.

“Jonzotlarni sevamiz” hikoyasi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga savollarga guruh bo'lib javob berish orqali mustahkamlanadi.

Hayvonlarni oldiga qo'yilgan belgilarga amal qilish zarurligi ta'kidlab o'tiladi.





“Bizning harakatlارimiz” metodikasi

Metodikani o‘tkazishni boshlashdan oldin o‘qituvchi bolalarni qiziqtirish uchun so‘raydi: **“Bugun ertalab uyg‘onganda birinchi qilgan harakating nima bo‘ldi?”**. Har bir bola o‘zining kundalik harakatlarini aytadi: turgan, yuvingan, kiyim kiygani, yurgan, yugurgan. Shu orqali metodika mavzusi – harakatlar haqida ekanligi ochiladi.

O‘qituvchi harakat so‘zini tushuntiradi: odamlar yuradi, sakraydi, qo‘lini ko‘taradi, yuguradi – bularning barchasi harakat hisoblanadi. So‘ngra bolalar bilan birga kichik jismoniy mashq qilinadi: o‘qituvchi aytgan harakatni bolalar bajaradilar – **“Qo‘lingizni ko‘taring”, “Yuguring”, “Otdek sakrang”, “Tinch turing”**. Bu nafaqat harakatlarni tanishtiradi, balki bolalarni faollashtiradi.

Keyin harakatlar haqida rasmiy topshiriq beriladi. Bolalar rasmlardan yurgan, yugurgan, o‘tirgan, sakragan bolalarni tanlaydi va nima qilayotganini aytadi. Bolalarga savol beriladi: **“Harakatlar bizga nima uchun kerak?”** Bolalar harakat qilmasak charchaymiz, sog‘lom bo‘la olmaymiz, o‘yin o‘ynay olmaymiz, degan javoblar topishga undaladi.

O‘qituvchi **“Harakat qilgan bola – sog‘lom bola”** degan iborani aytadi va nima sababli harakat inson salomatligi uchun muhimligini oddiy so‘zlar bilan tushuntiradi. Bolalarga har kuni ozgina mashq qilish, yugurish, raqs tushish, sayr qilish foydali ekanligi aytiladi. Shuningdek bolalar o‘zlari bilgan harakatli o‘yinlar haqida aytishi kerak. Barcha birgalikda **“Qush bo‘lib uchamiz”** o‘yini o‘ynaladi. O‘qituvchi hayvon nomini aytadi, bolalar u qanday harakat qilsa, o‘shani ko‘rsatadi – qush uchadi, baliq suzadi, quyon sakraydi.

Dars yakunida har bir bola bugun qanday harakatni o‘rganganini aytadi.



Uyga vazifa beriladi. Har bir alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan birgalikda **“Biz ijobiy xatti-harakatlarimiz bilan insoniyat hamda hayvonot dunyosiga o‘z hissamizni qo‘shamiz”** mavzusida matn yozib kelinadi.

22-dars. Shaxsiy chegaralar

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Biz ijobiy xatti-harakatlarimiz bilan insoniyat hamda hayvonot dunyosiga o'z hissamizni qo'shamiz”** mavzusida yozib kelgan matnni tinglanadi.

Darslikning 58-sahifasida berilgan rasmlar asosida chegaralar haqida umumiy tushuncha beriladi. Berilgan rasmlar asosida umumiylik, bir biridan farq qiluvchi jihatlar tushuntiriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda maxsus pedagoglar o'quvchilarni huquqlarini muhofaza qilish, har qanday kamsitishlarni oldini olish bo'yicha maktab jamoasi, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan targ'ibot tashviqot ishlarini olib borishi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari haqida to'liq xabardor bo'lishi zarur.



Dastlab alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga berilgan rasmlarning har biriga alohida ta'rif beriladi.

“Chegara” so'zi hududlar orasidagi chiziqni anglatadi. Insonlar orasida ham ko'zga ko'rinmaydigan chegaralar bo'ladi va bu **shaxsiy chegaralar** deb ataladi.

Bunday chegara insonga tegishli shaxsiy yoki xususiy jihatlarni (tana, buyumlar, fikrlar, qarashlar, qadriyatlar) ajratib turishi ta'kidlab o'tiladi.

Inson nafaqat o'zidagi shaxsiy chegaralarni his qilishi, balki boshqalarning ham ichki va tashqi chegaralari o'rtasidagi farqni bilishi muhimdir.

Har biringiz shaxsiy chegarangizni hurmat qilishlarini talab qilishga haqqingiz bor.

	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar shaxsiy chegaralarni aniq tushunishi uchun Akmal va Madina suhbatidan foydalaniladi. Suhbat davomida Madina kimdir uning tashqi ko'rinishi: ust boshi, oyoq kiyimlari, ularning narxi qancha turishini muhokama qilsa, u uchun bu juda yoqimsiz holat tuyulishini aytadi. Akmal esa hech bir sababsiz ota-onasini qancha maosh olishini yoki do'sti unga qancha sirlarini aytsa, kimdir cho'ntagini titkilagandek tuyulishini aytadi. O'qituvchi umumiy xulosa sifatida bu shaxsiy chegaralarni buzilayotganligidan dalolat berishini aytadi.	
---	--	---

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga shaxsiy hayot yo'lida, maktabda shaxsiy chegarasi buzilsa nima qilishi kerakligi tavsiya sifatida berib o'tiladi.

Sabr qiling va bahslashmang;

Bas qilishing talab qiling.

U sizga yoqmasligini ayting.

E'tibor bermang.

Urishib haydab yuboring.

Uning chegarasini ham buzishga urining.

Gapingizga quloq solmasa, kattalarni yordamga chaqiring.

“Shaxsiy chegaralar” metodikasi

Metodika o'quvchilarning kundalik hayotiga yaqin savollar bilan boshlash mumkin. **“Kimdir seni majburan quchoqlaganida yoqadimi?”**, **“Do'sting sening narsangni so'ramasdan olgan bo'lsa, sen nima his qilasan?”** kabi savollar bolalar o'z fikrlarini aytadi va shundan keyin o'qituvchi metodikaga o'ta oladi. Har bir insonning o'z hududi, o'z shaxsiy narsalari va his-tuyg'ulari bo'ladi, biz ularni shaxsiy chegaralar deb ataymiz.

O'qituvchi shaxsiy chegaralarni tushunarli qilib tushuntiradi: **“Sen istamasang, hech kim seni quchoqlamasligi kerak”**, **“Sen ruxsat bermasang, hech kim sening narsangni olmog'i kerak emas”**, **“Sen xafa bo'lsang, boshqalar bunga hurmat bilan qarashlari kerak”**.

Shundan keyin o'yinli mashq o'tkaziladi. O'qituvchi **“Ha yoki yo‘q”** deb nomlangan vaziyatlarni aytadi. **“Do‘sting sening ruxsatingsiz daftarini olib ketdi – bu to‘g‘rimi?”**, **“O‘yin vaqtida kimdir seni itarib yubordi – bu to‘g‘rimi?”** Bolalar **“Yo‘q”** deb aytishadi. **“Opangdan ruxsat so‘rab ruchkasini olishing – bu to‘g‘rimi?”** – **“Ha”** deb javob berishadi. Bu orqali bolalar to‘g‘ri va noto‘g‘ri xatti-harakatlarni farqlashni o‘rganadi.

“Qanday javob beramiz?” nomli mashq qilinadi. O'qituvchi vaziyatni aytadi, bolalar esa qanday javob berish mumkinligini o'ylaydi. Masalan: **“Do‘sting seni quchoqlamoqchi bo‘ldi, lekin sen xohlamaysan, bu vaziyatga nima deysan?”** Bolalar **“Iltimos, hozir quchoqlanmoqchi emasman”** kabi javobni sekinlik bilan o'ylaydi.

Mashg'ulot davomida bolalar **“Bu meniki!”** deb nomlangan rasmi topshiriqni bajaradi. Har bir rasmda bitta holat aks ettirilgan: masalan, bola o'z o'yinchog'ini ushlab turibdi, boshqa bola uni olmoqchi. Bolalar shu rasm haqida suhbatlashadi va **“Shaxsiy narsalarimni himoya qilish – bu mening huquqim”** degan xulosaga keladi.



Uyga vazifa beriladi. Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan birgalikda ko'chada shaxsiy chegarani buzadigan holat yuzaga kelsa qanday yo'l tutish kerakligi lozimligi aniqlab kelinadi.

23-24-dars. Ilmning qiziqarli olami

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda maxsus pedagoglar o'quvchilarni huquqlarini muhofaza qilish, har qanday kamsitishlarni oldini olish bo'yicha maktab jamoasi, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan targ'ibot tashviquot ishlarini olib borishi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari haqida to'liq xabardor bo'lishi zarur.

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda ko'chada shaxsiy chegarani buzadigan holat yuzaga kelsa qanday yo'l tutish yuzasidan fikrlari eshitiladi.

Mazkur darslar orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ilm-fan hech qachon tugamaydigan maroqli sayohat ekanligi, ilmning qiziqarli olami

haqida tushuntiriladi.


Ilm-fan natijasida olimlar yangi ixtiro va texnologiyalar qiladi.

Smartfonlar, kompyuter, ajoyib o'yinchoqlar, dori-darmonlar yaratiladi. Har bir yaratilgan narsalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tushunishi uchun inson hayotini yaxshilash jarayonidagi o'rni amaliyot bilan bog'lab beriladi.

Undan tashqari bizga tabiatni tushunishga yordam beradi, osmon nima uchun moviy, o'simliklar qanday o'sadi, nima uchun yomg'ir yog'ishi kabilarni bilishga imkon yaratadi. Xuddi sayyoramiz sirlarini ochishga o'xshaydi. Havoning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, hayvonot va o'simliklarni himoya qilish va jiddiy muammolarni hal qilishda bizga yordam beradi.

Ilm fan yordamida koinotni va u yerdagi sayyoralarni, yulduzlarni, uzoq-uzoqlardagi galaktikalar o'rganiladi.

Ilm-fanning har bir natijasi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun aniq, amaliy misollar keltirib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Birma-bir ilmiy kashfiyotlar bilan tanishtiriladi.

Rentgen nurlari

Ushbu kashfiyot orqali inson tanasini tuzilishini ko'rish imkoni paydo bo'ladi.



Hayotni asrab-avaylovchi antibiotiklar

Ko'plab og'ir kasalliklarni davolashda birinchi samarali dori hisoblanadi.

Ommaviy emlash

Organizmning immuniteti kuchayib, kasalliklarga bardoshli bo'ladi.




Televideniya yaratilishi

Dastlab maxsus qurilmalar yordamida ko'chada ketayotgan tramvayning tasvirini namoyish qilishadi.

Kompyuter

Hozirgi zamonaviy kompyuterlar soniyasiga 100 milliongacha amallarni bajaradi.



Uyali telefon ixtirosi

Motorola kompaniyasi 1973-yilda qo'lda ko'tarib yursa bo'ladigan mobil telefonni birinchi prototipini ishlab chiqargan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan bu kashfiyotlarning qaysi birini bilishi va qayerda uchratganligi, qachon foydalanganligi so'raladi.

Berilgan kashfiyotlar orasiga yana qanday kashfiyotlar qo'shsa bo'lishi haqidagi fikrlari so'raladi.

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham kelajakda yetuk olimlar bo'lib ixtirolar, kashfiyotlar qilishi mumkinligi aytilib motivatsiya beriladi. Olimlar ham bir vaqtlar yosh bola bo'lgan, dunyoni o'rganib, hamma narsaga qiziqib, ko'p narsalarni orzu qilganligi so'zlab beriladi.

Darslikning 64-65-sahifalarida keltirilgan har bir olimlarning fikrlari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga motivatsiya berish ko'rinishida tushuntirib beriladi.



“Ilmning qiziqarli olami” metodikasi

Metodikani boshlash uchun o'qituvchi bolalarga shunday savol beradi: **“Ilmni nima deb o'ylaysiz?”** Bolalar o'z fikrlarini aytadi. Kimdir **“Kitob”**, kimdir **“Maktab”**, yana kimdir **“O'rganish”** deb aytishi mumkin. O'qituvchi ularning javoblarini e'tirof etib, tushuntiradi: ilm — bu bizni aqlli, dono,

qobiliyatli va foydali inson bo'lishimizga yordam beradigan narsadir. Ilmni o'rganish orqali biz yangi narsalarni bilib olamiz, dunyoni tushunamiz.

Metodika davomida o'qituvchi bolalarga kichik tajriba yoki sehrli ko'rsatma o'tkazadi. Masalan, stakandagi suvga ozgina rangli bo'yoq soladi - suv rangi o'zgaradi. Bu bolalarda **"Voy!"** degan hayrat uyg'otadi. O'qituvchi aytadi: **"Mana bu - kimyo ilmi!", "Tabiatni o'rganish - bu ham ilm!"**

Keyin bolalarga **"Ilm sizga nima beradi?"** degan savol beriladi. Ular o'ylab, o'z orzularini aytadi: **"Men uchuvchi bo'lmoqchiman", "Men shifokor bo'lmoqchiman", "Men robot yasamoqchiman"**. O'qituvchi aytadi: **"Bunga faqat ilm orqali erishasiz"**.

Bolalar bilan **"Bilim sayohati"** o'yini o'tkaziladi. Sinf xonasida **"Ilm stansiyalari"** tayyorlanadi. Bir joyda hayvonlar haqida rasm, birida yulduzlar, birida daraxtlar, birida raqamlar bo'ladi. Har bir stansiyada bolalar kichik topshiriq bajaradi: rasmni to'g'ri nomlash, oddiy misol yechish, shaklni ajratish, topishmoq topish. Bu orqali ular turli sohalarda ilm nima ekanini amalda his qiladi.

Dars oxirida o'qituvchi bolalarga shunday deydi: **"Ilmni sevgan bolalar hech qachon zerikmaydi, chunki ilm - bu hech tugamaydigan qiziqarli sayohat"**. Bolalar bilan birgalikda shior aytiladi: **"Ilm o'rganaman - orzularimga yetaman!"**.



Uyga vazifa beriladi. Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan birgalikda qarindosh yoki do'stlari orasida ilm-fan bilan shug'ullanib, kashfiyot qilgan odamlar, hozirgi kunda ilm-fan hayotni qanchalik darajada o'zgartirayotganligini yozib keladi.

25-26-dars. Dunyoni o'zgartirayotgan internet

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda maxsus pedagoglar korreksion-pedagogik ishlarni olib borishi va ta'lim-tarbiya jarayonini muvofiqlashtira oladigan darajada salohiyatga ega bo'lishi, har bir dars mashg'ulotlarida o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda mustaqil qo'llay olishga tayyorlashi, bola o'zlashtirilgan o'quv materialini xolisona, muntazam baholash bo'yicha yetarli malakaning mavjudligi, doimiy o'quvchilarning o'zlashtirishi, eshitish va eshitgan ma'lumotlarini analiz qilishi, ular uchun maktabda yaratilgan shart-sharoitlardan to'g'ri va oqilona foydalanishiga rioya qilishlarini ta'minlashi, o'quvchilarni huquqlarini muhofaza qilish, har qanday kamsitishlarni oldini olish bo'yicha maktab jamoasi, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan targ'ibot tashviqot ishlarni olib bora olishi zarur.

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda qarindosh yoki do'stlari orasida ilm-fan bilan shug'ullanib, kashfiyot qilgan qarindoshlari haqida so'zlab berishi, hozirgi kunda ilm-fan hayotni qanchalik darajada o'zgartirayotganligi haqida yozib kelgan ma'lumotlari tekshiriladi va rag'batlantiriladi.

Ushbu mavzuda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga internetning ijobiy tomonlari internetdan samarali foydalanish tushuntirib berilishi zarur.

Shuningdek:

- juda qisqa muddatda kerakli ma'lumotlarni topish;
- yangiliklardan xabardor bo'lish;
- dunyoning istalgan nuqtasidagi

odamlar bilan odamlar bilan bog'lanish;

sanoqli soniyalar ichida xat yuborish yoki qabul qilish;

istalgan ma'lumotlarni do'konlardan xarid qilish mumkinligi aniq misollar bilan ochib beriladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar aniq tushuncha hosil qilishi uchun telefon, smartfon yoki kompyuterdan internetga kirib yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlar amaliy ko'rsatib beriladi.

Shu vaqtgacha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni internet haqida tushunchalarini bilish maqsadida: "internetdan nima maqsadda foydalanishi, o'qishga qanday yordam berishi mumkinligi, internetga ulana oladigan qanday qurilmalarni bilishi" so'rab olinadi. Shu kabilar asosida berilgan ma'lumotlar ustida ishlanadi.

Internetning ijobiy tomonlarini hayotga bog'lab tushuntirish maqsadida o'qituvchi darslikning 66-67-sahifasida berilgan "Internet – bilim olishda ko'makchimiz" hikoyasi tushuntirib beriladi. Unda Anvarni gripp bo'lib maktabga chiqolmay qolganida ustoz va tengdoshlaridan qanday mavzular o'tilganligini so'rab oladi. Undan tashqari internetdan qo'shimcha ma'lumotlar qidiradi. Tushunmagan joylarini ustoz va sinfdoshlaridan so'rab oladi. Natijada maktabga chiqqanidan keyin topshiriqlarni a'lo bahoga bajaradi. Faqat eshitib, takrorlash bilan ish bitmasligini, tushunmagan joylarini so'rab olib harakat qilishi kerakligini anglab yetadi. Internet – juda ham ulkan kutubxona ekanligini haqida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yana bir bor tushuntiriladi.



Qidiruv saytlari, veb-brauzerlar ba'zi ma'lumotlarni topish kerak bo'lganda, qulay vosita hisoblanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tasavvur ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida internet yo'q bo'lib qolganligi, unga sabab nima bo'lishi mumkinligi, internet yo'q bo'lsa qanday muammo bo'ladi yoki boshqa ishlarni bajarishga vaqt bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga har bir ishda tayyor narsani ko'chirib olmasdan mehnat qilishni darslikning 68-sahifasidagi **"O'zganing she'ri"** hikoyasi orqali tushuntirib beriladi. Bunda Davron bilan Sardor uyga berilgan she'r yodlash vazifasi berilganligi, Sardor kechasi bilan o'zi she'r yozib chiqqanligi, Davron esa tayyor internetdan ko'chirib olganligini aytadi.





Tekshirish jarayonida she'rlar tanlovga yuborilishini, ko'chirilgan yoki ko'chirilmaganligini agar ko'chirilgan bo'lsa bu xunuk ish bo'lishi aytiladi.

Sardor Davronga she'rni ko'chirib olganligini maslahat beradi, Davron bu vaziyat ikkilanib qolganligini va bu vaziyatda har bir o'quvchi bo'lib qolsa qanday yo'l tutishi haqidagi fikrlari eshitiladi.

Umumiy xulosa sifatida bu holatda Davron albatta o'qituvchiga aytishi, internetdan boshqalarning narsalarini o'ziniki sifatida o'zlashtirib olish mumkin emasligi faqat ma'lumot olish uchun foydalanish zarurligi tushuntiriladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar internet qudrati ya'ni bir daqiqada:

Facebookda **150 000 ta** xabar yuboriladi;

Youtubeda **4 mln** lavha ko'riladi;

Twitterda **457 000 ta** xabar yoziladi;

Google saytida **3 yarim mln** marta murojaat bo'ladi.

Internet juda katta imkoniyatlarni ochib berishi bilan bir qatorda dunyoning bir qismiga aylanganligidan tashqari internetning salbiy tomonlari ham borligi sanab o'tiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar internetning salbiy tomonlarini tushunishi uchun aniq misollar orqali aytilib beriladi.

	Barcha o'quvchilarga internetdagi biror saytda ro'yxatdan o'tish Akmal va Madina suhbatida asosida ochib beriladi. Bu jarayon alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tushunishi uchun barcha o'quvchilar uchun ommabop bo'lgan ta'lim saytlariga kirib ko'rsatiladi. Undan tashqari "Shaxsiy ma'lumotlar" haqida umumiy tushuncha berilib, o'ylamasdan tarqatib yuborish mumkin emasligi tushuntiriladi.	
---	---	---

Barcha o'quvchilarda to'liq tushuncha hosil qilish maqsadida "Xavfsiz internet" mavzusida tavsiyalar ro'yxati shakllantiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tushunishi uchun tayyorlangan tavsiyalar ro'yxatidagi saytlarga kirib nima uchun yaratilganligi tushuntirib beriladi.



“Dunyoni o‘zgartirayotgan internet” metodikasi

Metodikani oddiy savol bilan boshlash mumkin: **“Siz internet haqida eshitganmisiz?”, “Uyda telefon, planshet yoki kompyuterdan foydalanganmisiz?”** Bolalar bu berilgan savollarga o‘z hayotiy tajribasidan kelib chiqib javob berishadi. Kimdir **YouTube** ko‘rganini aytadi, kimdir o‘yin o‘ynaganini, kimdir rasm izlaganini. O‘qituvchi ularning gaplarini e‘tiborga olib, tushuntirish beradi: **“Internet - bu dunyo bilan bog‘lanishning bir yo‘li, u orqali biz o‘rganamiz, ko‘ramiz, yozamiz va gaplashamiz”**.

Keyin darsga rang-barang rasm va ko‘rgazmalar orqali hayotiy misollar kiritiladi. Masalan, bir rasmda bola onlayn dars ko‘rayotgan, boshqasida esa kimdir o‘yin o‘ynayapti. Uchinchi rasmda odamlar onlayn do‘stlashmoqda. Har bir rasm ustida suhbat o‘tkaziladi: bu holat foydalimi yoki yo‘qmi, qanday qilib to‘g‘ri foydalanish kerak.

Keyingi bosqichda kichik dramaviy mashq qilinadi. O‘qituvchi va bolalar rollarga bo‘linib, internetdan foydalangan holatni jonlantiradi. Masalan, bola do‘stiga rasm yuboradi, lekin boshqa do‘sti undan ruxsatsiz uni ulashadi. Shu holat muhokama qilinadi: bu to‘g‘rimi? O‘zaro hurmat va shaxsiy ma‘lumotni himoya qilish haqida suhbat qilinadi.

Metodika davomida bolalarga **“Foydali va zararli”** degan o‘yin taklif qilinadi. O‘qituvchi bir vaziyatni aytadi, bolalar esa uni foydali yoki zararli deb belgilashadi. Masalan: **“Internet orqali dars ko‘rish”, “Begona odam bilan internetda gaplashish”, “Telefonni tunda uzoq vaqt ushlab yotish”, “Onlayn kitob o‘qish”** kabi. Bu orqali bolalar xavfsiz foydalanish haqida bilim olishadi.

Yakunda o‘qituvchi bolalarga quyidagicha xulosa beradi: **“Internet juda foydali, lekin undan qanday foydalanishni bilishimiz, internet do‘stimiz ham bo‘lishi mumkin, agar uni to‘g‘ri ishlatsak”**.



Uyga vazifa beriladi. Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda biror internetdagi saytga kirib, nima maqsadda yaratilganligi aniqlanib kelinadi.

27-28-dars. Chet tillarini nima uchun o'rganish kerak?

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi qaysi bir internet saytiga kirganligini, sayt o'zida nimalarni aks ettirganligini aytadi va rag'batlantiriladi.

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga "Parijga sayohat" hikoyasi orqali biror davlatga borishdan oldin **"salom"**, **"rahmat"**, **"marhamat"**, **"kechirasiz"** kabi kerakli so'zlarni hamda borish rejalashtirilgan davlatning madaniyatidan xabardor bo'lish zarur.

Undan tashqari zamonaviy texnologik qurilmalarga (onlayn tarjimon) suyanib qolmasdan borish rejalashtirilgan davlat tilini ham egallash kerak, chunki o'sha davlatda qiziq tuyilgan barcha savollarga javob olish imkoniyati paydo bo'ladi.

"Parijga sayohat" hikoyasi tushunarli bo'lgandan keyin barcha o'quvchilardan o'zbek tilidan tashqari qaysi tillarni yaxshi ko'rib, qiziqib o'zlashtirayotganligi so'raladi. Sayohatning foydali jihatlari tushuntiriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya oladigan sinfda dastlabki do'stlik munosabatlarini yaratishda:

chorak boshida sinfingizga yangi a'zolar qo'shilganda darslarda ularni ishtiroki muhim va qimmatli ekanligini his qildirish, sinfga moslashtirish maqsadida salomlashish mashqlarini bajarish;

chorak boshida sinfga qo'shilgan yangi a'zolar dars jarayonlariga jalb qilish maqsadida eshikka "Xush kelibsiz" matnini yozib qo'yish;

o'quvchi sinfga kirganida ularni ham daxldorlik tuyg'usini shakllantirishda doskaga ularning ishtiroki tasvirlangan rasmlardan foydalanish;

dars davomida o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi turli o'yinlarni o'ynash;

sinfga kirganda, xulq-atvor qoidalarini muhim ekanligini bilishi uchun o'quvchilar tushunishga yordam beradigan sinf qoidalari tasvirlangan sodda plakatlar bilan ta'minlash zarur.



Hikoya alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yanada tushunarli bo'lishi uchun darslikning 71-sahifasidagi savollar asosida mustahkamlanadi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga zamondan o'zgan ma'rifatparvar **Is'hoqxon Ibrat** misolida chet tillarni o'rganishning ijobiy tomonlari tushuntiriladi.

“Lug'ati sitta as-sina” kitobiga arab, fors, hind, turk, o'zbek va rus tillaridagi so'zlarni kiritganligi ta'kidlanadi. Olti tillik lug'at tuzadi va bu yangi maktablarga rus, arab, fors va boshqa tillarni o'rganish uchun asosiy darslik bo'lganligi aytiladi.



Barcha o'quvchilar guruh bo'lib “Til bilgan elga manzur” maqolaning ma'nosi hamda chet tilini tez va oson o'rganib olish, yangi so'zlarni yodlash bo'yicha tavsiyalar ro'yxati tuziladi.



Xorijiy tilni o'rganish natijasida:

shu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyatidan xabardor bo'linadi;

ulkan imkoniyatlar eshigi ochiladi;

muloqot imkoniyati ham kengayadi;

ko'plab muammolar til orqali hal qilinadi;

inson xotirasini kuchli qiladi, diqqatni bir joyga joylash imkoniyatini oshiradi.



O'zbekiston maktablarida ta'lim o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman tillarida olib borilishi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga har bir aytib o'tilgan tilda gaplashadigan o'quvchilarning rasmini ko'rsatish yo'li bilan eslab qolishiga erishiladi.

Chet tillari misolida ingliz tilini o'rganish natijasida xalqaro miqyosda o'z kasbini ustasi bo'lib ketgan, 80 dan ortiq davlatlarda hakam bo'lib ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan Ravshan Ermatov natijalari aytib beriladi. Bu orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham istalgan chet tilini o'ganib olishiga motivatsiya beriladi.



“Chet tillarini nima uchun o'rganish kerak?” metodikasi

“Siz boshqa tilni eshitganmisiz? Masalan, inglizcha, ruscha yoki koreyscha so'zlarni?” deb metodika boshlanadi. Bolalar **“hello”, “bye”, “ok”** kabi tanish so'zlarni aytib, o'zlarining bilganlarini bo'lishishadi. O'qituvchi ularni quvontirib, **“Bu ajoyib! Demak, siz allaqachon chet tiliga qadam qo'yibsiz!”** deya metodikaga kirib boradi.

So'ngra bolalarga qisqa sahna ko'rinishi ko'rsatib beriladi: bir bola do'stini topdi, lekin u boshqa tilda gapiradi. Ular bir-birini tushunolmaydi. Lekin so'ng u inglizcha **“hello”** deydi, boshqa bola **“hi”** deb javob beradi. Ular asta-sekin til orqali do'st bo'lib ketadi. Bu bolalarda **“til — bu do'stlik ko'prigi”** degan tushunchani uyg'otadi.

Keyin kichik **“Til safari”** o'yini o'tkaziladi. Har bir stolda bir mamlakat belgisi bo'ladi: Angliya, Fransiya, Yaponiya, Turkiya. Har bir stolda shu tildagi bir oddiy so'z yoki salomlashuv aytiladi. Masalan: **“Hello”, “Bonjour”, “Merhaba”, “Konnichiva”**. Bolalar aylanish orqali bu so'zlarni eslab qolishadi. Bu ularning eshitish, talaffuz va xotira qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Metodika davomida chet tilini bilish qanday foyda keltirishi haqida kichik suhbat bo'ladi. O'qituvchi sodda misollar bilan tushuntiradi: **“Ingliz tilini bilgan bola internetda ko'proq ma'lumot topa oladi”, “Rus tilini bilgan bola ko'proq do'st orttiradi”, “Chet tilini bilgan inson kelajakda oson ish topadi”**.



Uyga vazifa beriladi. Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda qiziqqan chet tiliga oid bo'lgan 10 ta zaruriy so'zlarni yodlab keladi.

29-30-dars. Nima uchun hamma sayohat qilishni yoqtiradi?

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya oladigan sinfda dastlabki do'stlik munosabatlarini yaratishda:

o'quvchilar o'rtasida tajriba almashish hamda ijobiy muloqotni qo'llab-quvvatlash maqsadida sinflar o'rtasida uchrashuvlar tashkil qilish va bu uchrashuvlarni ta'tilgacha imtihonlardan oldin o'quvchilardagi hissiy ta'sir ko'rsatadigan voqealardan keyin amalga oshirilish;

chorak boshi va o'rtalarida o'quvchi nima qila olmasligini aniqlash maqsadida "Biz buni hali qila olmaymiz" mashg'ulotini o'tkazish (O'quvchilardan sinfda hali nima qila olmasligini aniqlash so'raladi va aniqlangan muammo yuzasidan guruh bo'lib ishlanadi);

chorak boshida o'quvchilarning umumiy tomonlarini aniqlashlari maqsadida "Men ham" mashg'ulotini o'tkazish (Bu mashg'ulotda o'quvchi "Men olmani yaxshi ko'raman" deganidan keyin sinfdagi olma yaxshi ko'radiganlar "Men ham" deb javob qaytaradi, shunday qilib, sinfdagi har bir o'quvchi nimaga qiziqayotganini yoki nima qilishni yoqtirishini ifodalaydi).

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi yordamida yodlab kelgan bo'lgan 10 ta qiziqqan chet tiliga oid zaruriy so'zlarni aytib beradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga "Qanday qilib dunyoga sayohat qilish mumkin" hikoyasi orqali sayohat qilish yo'llari va foydali jihatlari, sayohat qilish uchun yaxshi o'qish kerakligi, universitetga kirishi, haqiqiy mutaxassis bo'lishi, hayotda muvaffaqiyat qozonish zarurligi, o'z sohasini ustasi bo'lish tushuntiriladi.

Qanday qilib sayohat qilishga erishgan shaxslarni darslikning **74-75-sahifalaridagi qahramonlar** orqali yanada o'quvchilarning qiziqishi oshiriladi.

Shu orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning tushunishi yanada ortadi.



Sevara Yo'ldosheva Italiyada bo'lib o'tgan fortepiano bo'yicha xalqaro tanlovda bosh mukofotni qo'lga kiritgan.



Sardor Muhammadaliyev va Firdavs Ibrohimov Bolgariyadagi trampolin bo'yicha musobaqada.

Ozodbek Axtamov Turkiyada o'tkazilgan matematika bo'yicha xalqaro olimpiadada bronza medal sohibi bo'ldi.

Hikoya berilgan savollarga guruh bo'lib javob berish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mustahkamlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga dunyodagi qit'alar darslikning 76-sahifasida berilgan


“Nargizaning besh qit'alik o'rtoqlari” hikoyasida keltirilgan qahramonlar hamda ular tomonidan har bir qit'ada keltirilgan mashhur joy va narsalar orqali tushuntiriladi. Barcha o'quvchilarning yodida qolishi uchun dastlab qahramon va u ta'riflagan joy o'qib berilib keyin o'sha ta'rif ko'rsatilgan rasm tanishtiriladi. Shu orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ham o'qib ham ko'rib tushunishiga erishiladi.

Barcha o'quvchilarga hikoya qahramoni Nargiza kabi barcha qit'alarda do'st orttirish, internet, saytlar, chatlardan bilib tushunib foydalanish uchun ingliz tilini o'rganish zarurligi ta'kidlanadi.

“Nargizaning besh qit'alik o'rtoqlari” hikoyasi to'liq tushuntirib berilgandan keyin darslikning 77-sahifasidagi savollar asosida mustahkamlanadi. Har bir berilgan savollarning javobi tushunarli bo'lishi uchun rasmlar hamda tarqatma materiallardan foydalanish talab qilinadi.

“Nima uchun hamma sayohat qilishni yoqtiradi?” metodikasi

Metodika o'qituvchining quyidagi savoli bilan boshlanadi. **“Siz qayergadir sayohat qilganmisiz? yoki qayerga bormoqchi bo'lgan bo'lar edingiz?”**. Bolalar o'z xotiralarini yoki orzularini aytishadi. Kimdir



tog'ga chiqqanini, kimdir bobosinikiga ketganini, kimdir haliyam samolyotda uchishni orzu qilayotganini aytadi. O'qituvchi ularning javoblarini diqqat bilan eshitadi va: **"Sayohat - bu faqat uzoqqa borish emas, balki yangi narsalarni ko'rish, his qilish, o'rganish demak"** deb aytadi.

Keyin bolalar bilan **"Tasavvuriy sayohat"** o'yini o'tkaziladi. O'qituvchi ularga aytadi: **"Keling, hozir ko'zlaringizni yumamiz va birgalikda tog'larga sayohat qilamiz, u yerda havo salqin, qushlar chirqillayapti..."** So'ngra sahroga, so'ngra dengiz bo'yiga **"Boriladi"**. Har bir manzil haqida qisqacha tasvir beriladi. Bolalar qarab turib sayohat qilgan joyi haqida rasm chizadi yoki his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashadi.

Keyingi bosqichda o'qituvchi sayohatning foydalari haqida suhbat tashkil qiladi. U bolalarga sodda tilda tushuntiradi: sayohat qilganda biz yangi joylarni ko'ramiz, yangi odamlardan nimadir o'rganamiz, ba'zida boshqa tillarni eshitamiz, boshqacha ovqatlarni tatib ko'ramiz. Bu bizni aqlli, ko'ngilli, mehribon inson qiladi.

Metodika davomida bolalar bilan **"Kim qayerga bormoqchi?"** deb nomlangan kichik rol mashq qilinadi. Har bir bola o'ziga yoqqan bir mamlakatni yoki shaharni tanlab, **"Men Parijga bormoqchiman, chunki u yerda Eyfel minorasi bor"** kabi gap tuzadi. O'qituvchi ularni rag'batlantiradi, aniqlik kiritadi, so'z boyligini oshirishga yordam beradi.

Metodika so'ngida bolalarga shunday xulosa beriladi: **"Sayohat bizni baxtli qiladi, yangi joylar, yangi do'stlar, yangi bilimlar - bularning barchasi hayotimizni boyitadi"**.



Uyga vazifa beriladi. Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda yoqtirgan mashg'ulotini yuzasidan amaliy ish qilib kelinadi va shu asosida qaysi chet tilini o'rganishi va qaysi davlatga bormoqchiligini aytib berishi kerak bo'ladi.

31-32-dars. Takrorlash

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablarida tashkil qilingan inklyuziv ta'lim sinflarida dars mashg'ulotlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida o'quvchilar guruhlarga bo'linadi.

Raqobatdosh guruhlar: Bu guruhlarda ba'zi o'quvchilar g'alaba qozonadi, boshqalari esa yutqazadi. Bunday vaziyatda qolgan o'quvchilar kim faol ekanligini aniqlash uchun bir-birlari bilan raqobatlashadi.

Individual guruhlar: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun boshqalar nima qilayotganiga e'tibor bermasdan, yolg'iz, mustaqil harakat qilishadi.

Kooperativ guruhlar: Guruh a'zolari birgalikda g'alaba qozonadigan yoki yutqazadigan umumiy maqsadlar doirasida birgalikda ishlashni talab qiladigan va o'rganishda bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydi.

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda yoqtirgan mashg'ulotini yuzasidan bajarib kelgan amaliy ishi tekshiriladi va shu asosida qaysi chet tilini o'rganishi, qaysi davlatga bormoqchiligi bilib olinadi.

O'tilgan mavzularni takrorlash orqali o'rganilgan bilimlarni chuqurlashtirish va hayotiy ko'nikmalarga aylantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

har bir yangi darsdan oldin oldingi mavzularni doimiy ravishda eslatib o'tish;
yangi mavzuni avvalgi mavzular bilan bog'lab o'tish;

jadval yoki grafiklar yordamida mavzularni takrorlash rejasi tuzib olish;
rasmlar, videolar orqali mavzularni eslatib o'tish;

ovoz yozuvlar orqali bolalarga qulay usulda materialni takrorlash imkoniyatini berish;

tashkil qilish.

o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun amaliy mashqlar va o'yinlarni tashkil qilish;

misollarni hayotiy vaziyatlarga bog'lab tushuntirish;

har bir bolaning ehtiyojlari hamda qobiliyatlariga mos takrorlash usullarini qo'llash;

takrorlash jarayonini qisqa, samarali qilib tashkil qilish;

dasturiy vositalar va mobil ilovalar orqali o'yin shaklida amalga oshirish;

rag'batlantirish uchun kichik sovg'alar yoki maqtov so'zlarini kiritish;
ularning sevimli mavzulariga e'tibor qaratish;

o'z-o'zini nazorat qilish, xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

33-dars. Mustahkamlash

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

O'tilgan mavzularni mustahkamlashda rejali yondashish kerak bo'ladi.

har bir dars yoki mehnat faoliyatida mustahkamlash uchun alohida vaqt ajrating;

yangi bilimlarni kichik qismlarga bo'lib mustahkamlashni amalga oshiring;

avval sodda tushunchalarni takrorlang, keyin ularni yanada kengroq ko'rib chiqing;

doim materialni qiziqarli o'yinlar, boshqotirmalar yoki rolli o'yinlar orqali mustahkamlash;

yangi va o'tilgan mavzular yuzasidan o'tilgan bilimlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring;

hayotiy vaziyatlarda egallangan bilimlardan foydalanishni mashq qildiring (do'konda hisoblash, yo'l belgilari bilan tanishish).

tushunchalarni mustahkamlash uchun sensor materiallardan foydalaning (o'yinchoqlar, konstruksiyalar, plastilin);

guruh bo'lib ishlash orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiring;

qiziqarli va moslashtirilgan o'quv o'yinlari orqali bilimlarni mustahkamlang;

bolaning qobiliyati, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda dars faoliyatiga moslashtiring;

bolalarning o'zlashtirish darajasiga qarab vaqt va materialni moslang;

bolalarni o'zlari yaratgan asarlar (rasmlar, hikoyalar, qo'shiqlar) orqali mavzuni mustahkamlashga jalb qiling;

oddiy savollar: "Bu mavzuda nimalarni bilasan?" yoki "Bu ishni qilishda qanday qiyinchiliklarga duch kelding?" kabi savollar bilan bilimlar tahlil qilinadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan diqqat yetishmasligi va giperaktiv bolalar bilan ishlashda maxsus yondashuvlar va strategiyalar qo'llanishi zarur.

Ushbu bolalar diqqatni jamlashda, topshiriqlarni yakunlashda yoki o'rnatilgan tartib qoidalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

eshikdan kirgan tomondagi devorga yaqin o'ringa old qatorga o'tirishini taklif qilish;

sinfda giperaktiv o'quvchining yonida o'tirgan tengdoshini kirishuvchanligiga ishonch hosil qilish;

oldin o'tilgan mavzularni tez-tez ko'rib chiqish;

yozishga oid vazifalarni bajarishda tengdoshini unga yordam berishiga, yozgan ma'lumotlarini tekshirishga ruxsat berish, unga ovoz yozish moslamasi yordamida darsni yozib olishga ruxsat berish;

uy vazifalarini tayyorlashda ularga kompyuter va internetdan foydalanishga ruxsat berish lozim.

34-dars. Yakuniy dars

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib bugungi kun, oy, yil hamda ob-havoni haqida ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan bir qatorda barcha o'quvchilar bir yil davomida egallagan bilimlari va eng qiziqarli mavzular yuzasidan fikrlari yuzasidan suhbatlashiladi.

Qaysi dars mashg'ulotini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga uchraganligi aniqlanadi. Aniqlangan mavzu yuzasidan guruh bo'lib ishlanadi.

Yozgi ta'til davomida vaqtni bekorga sarflamasdan kitoblar o'qish, sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanish, uy yumushlarida ota-onasiga yordam berish ta'kidlanadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan diqqat yetishmasligi va giperaktiv bolalar bilan ishlashda uy vazifalarini tayyorlashda ularga kompyuter va internetdan foydalanishga ruxsat berish; vaqtni to'g'ri taqsimlashda aniq harakat qilishini ta'minlaydigan vazifalarni berish (masalan: qalamni chiqarish, doskani o'chirish);

sinfda bola diqqatini bo'ladigan materiallarni sinfning orqa tomoniga joylashtirish;

sinf ichida individual va guruhli mashg'ulotlar olib boradigan burchaklar tashkil qilish;

yozish texnikasida muammolar kuzatilsa og'zaki imtihon bilan baholash;

matnni o'qish vaqtida muhim qismlarni rangli qalam bilan belgilab, tushunib olish;

sinf ichki qoidalarini o'zida aks ettirgan va vizual ravishda kiritilgan taxtalardan foydalanish;

dars davomida o'quvchining e'tiborini oshirish uchun og'zaki rag'batlantirish yoki jismoniy mashqlarni rejalashtiring.

O'qituvchilar uchun tavsiyalar

Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi.

Shunday ekan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim sinflarining tashkil etilishi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kelajagiga ijobiy ta'sir etish bilan bir qatorda boshqa (sog'lom) bolalarning ham hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi degan savol tug'ilishi mumkin.

o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari, ularning hayoti, ehtiyojlarini his qilishni o'rganadi;

tengdoshlariga nisbatan g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;

qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish, insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

o'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklangan shaxslarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat ruhi shakllanadi;

yordamga muhtoj shaxslarga e'tiborsizlik qilmaydigan o'quvchilarga aylanadi;

shukronalik hissi uyg'onadi;

o'zini boshqalarga yordami tegayotganligidan faxrlanadi.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga esa:

o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;

mustaqil harakatlanish, birgalikda yurish, hamkorlikda ishlash imkoniyati yuzaga keladi;

dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

oldin sezilmagan imkoniyatlari yuzaga chiqadi;

yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi;

ijtimoiy hayotga moslashadi.

Hozirgi kunda innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollangan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda tashqi ko'rinish madaniyatiga e'tibor bilan qarashi, o'zida zamon talabi darajasidagi tashqi qiyofani odat qilishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi har doim o'quvchilar bilan bir qatorda ijtimoiy jamiyatning har qanday sohasida faoliyat olib borayotgan insonlarga o'rnak bo'lishi zamon talabi darajasi deb qarashi zarur.

O'qituvchining tashqi qiyofasi ya'ni, kiyinish uslubi ko'pincha uning ichki dunyosi, madaniyatini aks ettiradi. Toza, ozoda, qulay, ko'zga tashlanmaydigan, kiyinish madaniyatiga amal qilib yursa o'quvchilar uchun ibrat bo'la oladi. O'qituvchining butun qiyofasi bolalarni o'quv jarayonidan chalg'itmasligi ularning o'z oldiga qo'yilgan asosiy talablari sirasiga kiradi.

O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tilini o'zida aks ettiruvchi, zamonaviy texnika, texnologiya, xalqaro qabul qilingan terminologiyalardan to'g'ri va o'rinli qo'llashi hozirgi zamon talabi darajasida

bo'lishi lozim. Agar o'tiladigan dars mashg'uloti mavzusi o'qish, hikoya, xalq o'g'itlari, maqol, tez aytish bo'lsa, obrazga kirib, bolaning qalbiga kirib boradigan darajada qiziqтира olishi talab etiladi.

Mashg'ulot mavzusi og'zaki bayon etish, tushuntirishdan iborat bo'lsa, nutq tekis, ravon, bir maromda va osoyishta bo'lishi maqsadga muvofiq. Butun jarayonda o'qituvchi o'z nutqining grammatik va leksik savodxonligiga e'tibor bergan holda sustkashlikka yo'l qo'ymasdan, kerakli o'rinda obrazli qilib, o'quvchilar havas bilan taqlid qiladigan darajada to'g'ri til ko'nikmalariga e'tibor qaratilishi lozim.

Shu o'rinda barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqni to'g'ri va savodli egallashi uchun aynan o'qituvchiga taqlid qilish orqali amalga oshirilishi hisobga olinishi zarur. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi yuqori darajada xushmuomalalik va sabr-toqatni namoyon qilishi, qo'pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo'l qo'ymasligi talab qilinadi.

O'quvchi bilan muloqot do'stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining bolalarga berayotgan har qanday ma'lumotida insonparvarlik, samimiylilik aks etib turishi, inklyuziv ta'limda faoliyat olib borayotgan bunday o'qituvchi bilan bir marta muloqotga kirishgan shaxs (ota, ona, bola) da u bilan yana suhbatlashish, muammolari bilan dardlashish istagi paydo bo'ladigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Shunda ko'zlangan maqsadga tez va samarali erishish mumkin.

Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri muloqot qobiliyatiga, gnostik ko'nikma, didaktik mahorat, o'yin qobiliyati, tashkiliy ko'nikmalar, kommunikativ-rejissyorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyatlari hamda ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari doimiy ravishda motivatsion ko'nikmalarni ham rivojlantirib borishi, ya'ni, o'quv jarayonida bolalar nima o'rganayotganlarini va bu qanday yordam berishi mumkinligini anglashi, ularning istak-xohishlarini aniqlay olishi lozim.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qituvchi tomonidan darsda o'qish vaqtida darslikni ochishda, kerakli sahifani topishda, qayerda o'qishimizni ko'rsatishda yordam berilishi kerak. Bunday holatlar nafaqat inklyuziv sinflarda balki barcha sinflarda ham uchraydi. Bu holda bola ba'zi sabablarga ko'ra darsning borishini kuzatishni istamaydi va tanqidga uchraydi. Shuning uchun ularga yordam berilishi kerak.

Dars davomida siz topshiriqlarni bajarish vaqtini ko'proq qilishingiz kerak (agar bu matn uchun savollar bo'lsa, unda siz 3 ta yoki 4 ta savollarni muhokama qilishingiz mumkin). Shuningdek, matnni to'liq o'qimaslik tavsiya etiladi, chunki bolalar juda tez charchaydi.

Savollarga javob berganda, respondentga o'ylash uchun biroz ko'proq vaqt berilishi kerak (bolalarning reaksiyasi sekinlashish holati kuzatilishi mumkin). Yozma ish, testlar ancha vaqt talab etilishi (o'qituvchining yordami kerak, ya'ni, daftar toping, daftarni oching, daftar, qalam toping va h.k.) inobatga olib bunday holatda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun vazifani quyidagicha shakllantirishingiz kerak:

topshiriq og'zaki va yozma ravishda tuzilishi kerak;
vazifa qisqa, aniq, bitta harakatni ifodalaydigan, bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi;
vazifalarni shakllantirishda yakuniy mahsulotni ko'rsating (tayyor matn, matematik muammoning yechimi va hokazo);
vazifani bola bilan birga shakllantirish;
bolaga ishni tugatish imkoniyatini berish;
bolani to'g'ri baholash ya'ni bolaning salbiy tomonini emas, balki uning yaxshi xulq-atvorini ta'kidlashga harakat qilish;
intizomiy kichik buzilishlariga e'tibor bermaslik;
bola yaxshi baho olishi uchun topshiriqni qayta yozishiga, o'qishiga ijozat berish (keyinchalik qayta ishlangan ish uchun bahoni hisoblash);
bolani baholashda iqtidori, imkoniyatidan kelib chiqqan holda baholash tizimidan foydalanish;
agar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola butun sinf oldida javob berishi qiyin bo'lsa, unda unga tugallangan topshiriqni kichik guruhlarda o'rtoqlarining yordamidan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 1-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2024-yil.
- 2.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 2-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2022-yil.
- 3.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 3-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2023-yil.
- 4.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 4-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2023-yil.
- 5.** S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova "Inklyuziv sinfdagi maxsus o'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasi" nomli metodik qo'llanma, Toshkent, 2022-yil.
- 6.** S.Mo'minov, G.Alimova "Mashg'ulotlarda interfaol usullar" metodik qo'llanma, Toshkent, 2025-yil.
- 7.** G.Alimova, S.Mo'minov "Inklyuziv ta'limda korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar" metodik qo'llanma, Toshkent, 2025-yil.

Mundarija

4-sinf

Kirish	3
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish.....	5
1-2-dars. Biz – O'zbekiston fuqarolarimiz	8
3-5-dars. Fuqarolik sifatleri.....	13
6-dars. Yo'lingiz bexatar bo'lsin	19
7-dars. Temir yo'l yaqin bo'lsa	22
8-dars. Havoning ifloslanishi	24
9-dars. Suv zaxiralari	27
10-dars. Cho'lga aylanayotgan hududlar.....	29
11-dars. Chiqindini qayta ishlash	32
12-13-dars. Sog'lom turmush tarzi	36
14-dars. Xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerak?.....	44
15-16-dars. Qobiliyatlarni rivojlantirish	47
17-18-dars. O'qing va uqing.....	51
19-21-dars. Bizning harakatlarimiz	58
22-dars. Shaxsiy chegaralar.....	63
23-24-dars. Ilmning qiziqarli olami	66
25-26-dars. Dunyoni o'zgartirayotgan internet	70
27-28-dars. Chet tillarini nima uchun o'rganish kerak?.....	75
29-30-dars. Nima uchun hamma sayohat qilishni yoqtiradi?.....	78
31-32-dars. Takrorlash.....	81
33-dars. Mustahkamlash.....	82
34-dars. Yakuniy dars	83
O'qituvchilar uchun tavsiyalar.....	84
Foydalanilgan adabiyotlar.....	86